Rivojlangan mamlakatlarda turizm uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha katta tajriba to'plangan. Uni ijodiy o'rghanish, umumlashtirish va tanqidiy tahlil qilish O'zbekistonda turizm ta'limi samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Hozirgi paytda turizm ta'limi tizimida ixtisoslashtirilgan muassasalar sonini ko'payishning barqaror tendensiyasi kuzatilmoqda. Masalan, Xitoyda turizm va mehmonxona profilidagi 845 ta ta'lim muassasasi, Germaniyada turizm sohasi uchun kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha 400 ta markaz faoliyat ko'rsatmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda turizm ta'limi tajribasini qiyosiy tahlil qilish uchun soha mutaxassislarini tayyorlash va tarbiyalash samaradorligini, sifatini belgilovchi quyidagi **asosiy parametrlarni** ko'rsatish zarur:

- ❖ Turizm ta'limi milliy ta'lim tizimining tarkibiy qismi sifatida;
- ❖ Turizm ta'lim tizimining tuzilishi va vazifalari;
- ❖ Turizm ta'limi faoliyatining me'yoriy-huquqiy asoslari;
- ❖ Turistik ta'lim muassasalari pedagogik tizimining tuzilishi va mohiyati;
- ❖ Mutaxassislarini uzlucksiz tayyorlashni tashkil etish;
- ❖ Turizm ta'limi tizimini boshqarish.

Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda oliy ta'limning ikkilik tizimlari shakllangan bo'lib, ularda universitet sektori (ko'pincha talabalar soni ustunlik qiladi) bilan bir qatorda ixtisoslashtirilgan muassasalar ham ishlaydi. Yevropa davlatlaridan Belgiya, Buyuk Britaniya, Gretsya, Daniya, Irlandiya, Niderlandiya, Norvegiya, Germaniya, Fransiya, Shveytsariya va boshqalar oliy ta'limning binar tizimiga ega.

**Ingliz turizm maktabi** dunyodagi eng yaxshilardan biridir. **Kornuoll kolleji** ("Cornwall College") o'zining olti darajali tizimida keng ixtisosliklarni taklif etadi. Milliy diplom dasturi va Davlat milliy kasb-hunar malakasi doirasida amaliy yoki kasbiy yo'naltirilgan ta'lim kursini tanlash mumkin. Ko'pgina Uzluksiz Ta'lim (A-level) o'quv dasturlari va barcha oliy ta'lim dasturlari Buyuk Britaniya universitetlarida yuqori darajadagi ta'lim olish imkonini beradi.

Turizm ta'limi sohasida Kornuoll kolleji turizmning turli yo'nalishlari bo'yicha bir nechta ta'lim dasturlarini taklif qiladi. Misol uchun, ekskursiya gidlarini tayyorlash dasturi ikki darajadagi treningni taklif qiladi. Birinchi darajali dastur uchinchi bosqich malakaviy yo'riqnomasi - "gidlar uchun talqin va sharh" tomonidan tayyorlanadi. Ushbu blok xalqaro malakaga ega bo'lishni, sayyoohlар uchun ekskursiyalarini o'tkazishni, sayr qilishni xohlovchilar uchun mo'ljallangan.

Bu borada ma'lum darajada muvaffaqiyatga erishgan talabalar Kornuollning diqqatga sazovor joylari bo'ylab sayyoohlар guruhlariga hamroh bo'lishlari mumkin. Ikkinci darajali dastur to'rtinchи malaka bosqichi gidlarini - ko'k nishonli gidlarni tayyorlaydi. Ushbu kurs darsni qiziqarli o'qitishini, shu jumladan, Kornuollga ekskursiyalarini o'z ichiga oladi.

Kornuoll kollejida oltita dastur mavjud:

- Sayohat agentligi sertifikati;
- "Galileo" va "Sabre" bronlash tizimlari;
- Aviachiptalar va Lufthansa chiptalari;
- Ikkinci bosqich sayohat xizmatining milliy professional malakasi;
- Uchinchi bosqich milliy kasbiy malaka - sayohat xizmati;
- Sayohat va turizm bo'yicha milliy diplom.

Ingliz turizm va menejment maktabida besh bosqich uchun turli xil o'quv dasturlari mavjud: "kirish", "asosiyalar", "oliy ta'lim to'g'risidagi milliy diplom", "oliy daraja", "aspirantura". Ular gidlar, sayyoohlар agentliklarini tayyorlashga qaratilgan. Nazariy kurslar bo'lajak mutaxassisiga yo'l-yo'riq ko'rsatadigan amaliy mashg'ulotlar bilan birlashtiriladi.

**Irlandiya** turizm mutaxassislarini tayyorlashga katta e'tibor beradi. Yaqin 10 yil ichida bu mamlakatda sayyoohlар sonining ortishi kutilmoqda, shu bois kelayotganlarga xizmat ko'rsatish uchun malakali kadrlar tayyorlash faollashtirilmoqda. Dublin kolleji o'quv dasturining Shveytsariya-Amerika modeli (shveytsariyalik mehmondo'stlik va Amerika menejmenti tamoyillarini birlashtirgan) asosida ishlaydi.

Irlandiya oliy mehmonxona boshqaruvi maktabida ular quyidagi dasturlarni o'rganadilar: tijorat, xalqaro mehmonxona boshqaruvi, xalqaro mehmonxona boshqaruvi bo'yicha biznes kursi. O'quv jarayoni boshqa maktablarga qaraganda boshqacha tashkil etilgan: birinchi yil nazariyaga bag'ishlangan, ikkinchi yil, shu jumladan yozgi, amaliyot uchun ajratilgan, keyin nazariya yana bir yil davomida o'rganiladi va oxirgi semestrdan keyin to'rtinchи kursda o'qish, yana 11 oy amaliyot.

Mehmondo'stlik bo'yicha mutaxassislarni tayyorlaydigan taniqli ta'lim muassasasi **Shveytsariya mehmonxona boshqaruvi maktabidir**. Uning bitiruvchilari dunyoning turli mamlakatlaridagi mehmonxonalarda ishlaydi va ularning ba'zilari o'z bizneslarini yo'lga qo'ygan. O'quv dasturi modulli: siz bor-yo'g'i bir yil o'qib, sertifikatga ega bo'lishingiz yoki Maktabda bir necha yil qolib, magistr bo'lishingiz mumkin. Barcha biznes fanlari ingliz tilida o'qtiladi. Bu erda dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalar tahsil olishadi.

Shveytsariyada mehmonxona va turizmni boshqarish bo'yicha o'nlab xususiy maktablar mavjud. Maktab ochish uchun davlat ruxsati talab qilinmaydi. Egasining o'zi dasturni, o'qitish darajasi va sifatini belgilaydi va amalda maktab ishonchli obro'ga ega bo'lishi kerak. Ta'lim bo'yicha federal yoki kantonal davlat komissiyasi yoki davlat yoki xususiy universitet bunday maktabni tekshirishi va akkreditatsiya qilishi mumkin.

**Mehmonxona boshqaruvining birinchi maktabi** bundan yuz yil oldin Shveytsariyada (**Lozanna**) paydo bo‘lgan. U hozir ham dunyodagi eng hurmatli maktablardan biridir. Maktab asoschisi mehmondo‘stlik biznesidagi muvaffaqiyat nafaqat texnik, boshqaruva yoki kommunikativ qobiliyatlarga, balki ma’lum bir shaxs turi bilan ta’milanishini yaxshi bilardi: ochiq, baquvvat, diplomatik, tashabbuskor, har qanday holatda ham o‘zini erkin his qila oladigan shaxs. Maktabning eng asosiy an’anasi - bu shaxsning etakchilik qobiliyatini rivojlantirish va jamoada yaxshi muvofiqlashtirilgan hamkorlikni o‘rgatish hisoblanadi.

O‘quv rejasida akademik bilim va kasbiy amaliy tayyorgarlikni uyg‘unlashtirish tamoyili o‘z ifodasini topgan bo‘lib, uning asosini fanlar majmuasi tashkil etadi. Talabalar mehmondo‘stlik sanoatining istalgan sohasida martaba uchun tayyorlanadilar. Lozanna maktabi bitiruvchilari dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarda ishlaydi, eng mashhur mehmonxona kompaniyalarini boshqaradi, ularni deyarli barcha mamlakatlarda uchratish mumkin.

Lozannadagi maktab tajribasi xalqaro turizm ta’limi muassasasining ilmiy-pedagogik jarayonini kuzatish imkonini beradi. Ushbu muassasada turistik kadrlar tayyorlash tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

- Har qanday ijtimoiy muhitda o‘zini erkin his qiladigan ochiq, baquvvat va aloqaga tayyor shaxs turiga yo‘naltirilganligi;
- Bitiruvchining etakchilik va jamoada uyg‘un ishslash qobiliyatlarini rivojlantirish;
- O‘quv jarayonida aspirantning kasbiy faoliyatini rejalahtirish;
- Kasbiy va ixtisoslashtirilgan kurslar va fanlarni majburiy ikki tilda o‘qitilishi;
- Kelajakdagi kasbiy mehnat faoliyatining o‘ziga xos shartlariga moslashtirilgan boshqaruvning o‘zaro almashtiriladigan ko‘nikmalarini shakllantirish;
- Boshqaruv ko‘nikmalarini parallel ravishda egallah va mehmondo‘stlik sohasida namunali bilim olish;
- Ta’lim jarayoniga integratsiyalashgan xorijiy stajirovkalardan foydalangan holda ish joyida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish;
- Kasbiy ta’lim modulini joriy etish, ya’ni ta’lim jarayonida o‘quv dasturining turlaridan birini tanlagan yoki mutaxassisni ixtisoslashtirilgan tayyorlashning ko‘p madaniyatli tabiatи.

**Fransiyaning transmilliy turizm** va mehmonxona korporatsiyasi va boshqa bir qancha turizm tizimlari hamda mehmonxona tarmoqlarida o‘ziga xos fransuz metodologiyasi joriy etilgan. Bu transmilliy korpotatsiya bazasida Yevropa va boshqa regionlarni o‘z ichiga olgan 140 ta davlatlar vakilligining xalqaro guruhi tuzilgan. Unda xodimlar qadrlanadi, ularning tashabbusi rag‘batlantiriladi va korporativ ruh mustahkamlanadi. Jamoada yaxshi ishslash qobiliyatiga katta e’tibor beriladi.

Guruh turli xil ijtimoiy va jismoniy qobiliyatlarga ega bo‘lgan odamlar uchun keng ko‘lamli kasblarni taklif qiladi. Tadbirkorlikni rivojlantirish guruhning ustuvor strategiyasi bo‘lib, uni rivojlanayotgan mamlakatlarda biznesni rivojlantirish menejerlari, loyiha menejerlari, biznesni rivojlantirish bo‘yicha direktorlar amalga oshiradilar. Ular o‘zlarining korporativ tashkilotlariga ko‘plab o‘quv dasturlarini taklif qilishadi. Dasturlar mijozning istaklari va talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Kasbiy ta’lim, shuningdek, yozgi kurslarda yoki bir yil davomida mijozning binolarida amalga oshiriladi. Dasturlarning o‘ziga xosligi ularning "ikki diplomli"ligidadir. Kurs ishtiroychilari diplom, shuningdek, xalqaro mehmondo‘stlikni boshqarish bo‘yicha fan bakalavri (Fransiya maktablari va kollejlari assotsiatsiyasi tomonidan tan olingan) darajasini oladilar, bu esa dunyoning istalgan universitetida oliy ta’limni davom ettirish imkonini beradi.

Mehmonxonani boshqarishning fransuz usuli, shuningdek, universitetning Neuchatel shahrida joylashgan mehmonxona boshqaruvi maktabi tomonidan ham amalga oshiriladi. Maktab Fransiya, Shveytsariya hamda xalqaro mehmonxona va turizm assotsiatsiyalari a’zosidir. Uch kursni tugatgandan so‘ng, uning talabalari Xalqaro mehmondo‘stlik va turizm menejmenti bo‘yicha bakalavr hamda mehmonxona boshqaruvi bo‘yicha magistrlik diplomiga ega bo‘ladilar. Bitiruvchilar yana bir yil (aspiranturada) o‘qishlari mumkin, shundan so‘ng ular "Mehmonxona faoliyati" mutaxassisligi bo‘yicha diplom oladilar. Bakalavr darajasini olish uchun talabalar

Neuchatel maktabining diplom dasturini muvaffaqiyatli tamomlashlari kerak. Maktab tomonidan berilgan rasmiy universitet darajasi Yevropa Ittifoqiga a'zo barcha davlatlarda tan olinadi. Maktabda o'quv jarayoni juda qizg'in.

**"Vatel-Paris"** Vatel institutining mehmonxona sanoatidagi Parij, Lion, Nitssa va Bordo shaharlarida joylashgan to'rtta oliy ta'lif muassasasidan biri. Vatel instituti falsafasi: "Barcha nazariy bilimlar amaliyat bilan tasdiqlanadi". Institut milliy va xalqaro mehmonxona guruhlari, mehmonxona va restoranlarning yakka tartibdagi egalari bilan ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatgan, ular o'z navbatida o'quv jarayoniga sherik bo'lib, amaliyat o'tash uchun joylar ajratishadi.

**Xalqaro boshqaruv akademiyasida** dunyoning turli burchaklaridan kelgan talabalar tahlil olishadi. O'qitish ikki tilda olib boriladi: fransuz va ingliz tillarida. Bu Yevropadagi birinchi turizm va mehmondo'stlik ta'lif muassasasi bo'lib, Amerika mehmonxonalar va motellar assotsiatsiyasi instituti tomonidan sertifikatlangan. O'qitish 3 yil davomida amalga oshiriladi. O'qish davomida talabalar eng yaxshi mehmonxonalar: Hilton, Holiday Inn, Hyatt, Novotel, Marriot va boshqalarda amaliy mashg'ulotlar va amaliyat o'tashadi.

Fransiyada yaratilgan birinchi turistik ta'lif tizimi - **Parij mehmonxona boshqaruvi va turizm maktabitidir**. Ushbu ta'lif muassasasi dunyoning 70 dan ortiq davlatidan talabalarni qabul qiladi. Maktab diplomlari Yevropa hamjamiyatining boshqa mamlakatlarida ham tan olinadi. Hamkor korxonalarning mavjudligi tufayli uning talabalarini amaliyat o'tash va kasbiy tajriba orttirish imkoniyatiga ega.

**Avstraliyaning Sidney Biznes va Turizm Akademiyasi** professional ta'lifni taklif qiluvchi ta'lif muassasasidir. Akademiya NSW Professional dasturlar kengashi tomonidan akkreditatsiyadan o'tgan. Akademiya biznes, turizm va mehmondo'stlikni boshqarish, axborot texnologiyalari va bolalarni parvarish qilish bo'yicha kurslarni taklif etadi. Biznes va menejment bo'yicha tegishli kursni o'rgangandan so'ng, bakalvr diplomi yoki undan yuqori darajali diplom olish mumkin. Barcha kurslar nazariya va amaliyat uyg'unligi asosida qurilgan. Talabalarga boshqaruv usullari, mehnatni tashkil etish, tegishli kompyuter dasturlari o'rgatiladi.

Inter-Continental mehmonxonasi - "**Mehmonxona boshqaruvi**" maktabi Avstraliyadagi besh yulduzli mehmonxona negizida ochilgan yagona ta'lif muassasasidir. U xalqaro tarmoqqa tegishli. Bitiruvchilarning 95 foizi o'qishni tugatgandan so'ng ish topadi. Barcha talabalar o'qishning birinchi yilidayoq pullik amaliyatga ega. Ushbu mehmondo'stlik maktabi turli mutaxassisliklar bo'yicha kurslarni taklif qiladi. Bir yillik o'qishdan so'ng talabalarga uchta sohadan (mehmonlarni qabul qilish va joylashtirish, oziq-ovqat va ichimliklar tayyorlash, pazandachilik) biriga ishga joylashish imkonini beruvchi sertifikat beriladi.

**AQShdagagi** Amerika Sayohat Agentliklari Jamiyatini dunyodagi eng yirik sayyoqlik assotsiatsiyasi hisoblanadi. Sayohatchilar va turizm industriyasining huquqlarini himoya qiladigan bu tashkilot "**Dunyo bo'ylab turizm faoliyatida halollik**" tamoyiliga amal qiladi. Bu jamiyat o'z a'zolarini ilg'or ta'lif texnologiyalari bilan ta'minlaydi va barcha mavjud axborot resurslari bilan ta'minlaydi; doimiy ravishda turizm sohasini tekshiradi va insofsiz operatorlar va boshqa xodimlarni aniqlaydi, halol raqobatni ta'minlash uchun kurashadi. U 1986 yilda tashkil etilgan va sayyoqlik, kruiz va ichki turizm (turizm bilan bog'liq xizmatlarni sotish va tarqatish) sohasida mustaqil sayyoqlik agentliklarining etakchi assotsiatsiyasi hisoblanadi. Hozirgi kunda jamiyat 1000 dan ortiq a'zolarga ega, tashkilotning barcha a'zolari rioya qilishlari kerak bo'lgan o'z axloq kodeksiga ega.

Kompaniya faoliyatining asosiy maqsadi – agentlarning kasbiy mahoratlarini va daromadlarini oshirish, iste'molchilarning talablarini aniqlash va qondirish asosida samarali takliflar, ta'lif va malaka oshirishni belgilab beradi. Sayyoqlik agentliklari va turizm bilan bog'liq boshqa soha vakillarining halolligi va malakasiga tayanishga majbur qilishadi, shuning uchun jamiyatning barcha a'zolari turizmda biznes qilishda halollik idealini targ'ib qilish tarzida olib borishlari va turizmning asosiy qoidalariga muvofiq harakat qilishlari shart.

Avtomatlashtirilgan ta'lism koalitsiyasi Amerika Sayohat Agentliklari Jamiyatni tarkibida sayyoqlik agentliklari sanoati uchun mutaxassislar tayyorlash ehtiyojlarini o'rganish uchun bir necha yillardan beri faoliyat yuritib kelmoqda.

**Rossiya** turizmi ham original mutaxassislarini tayyorlashda katta tajriba to'plagan. Bu erda turizm biznesi mutaxassislarini tayyorlash va qayta tayyorlashning keng tizimi shakllangan. Turizmning mohiyatini tushunish Rossiya Xalqaro Turizm Akademiyasi (RMAT) faoliyatining asosiga aylandi. U turizm masalalari bo'yicha davlatlararo ta'lism muassasasi sifatida Rossiya Federatsiyasi, MDHga a'zo davlatlar, Boltiqbo'yini mintaqasi va xorijdagi ayrim ta'lism muassasalari bilan tuzilgan shartnomalar va hamkorlik asosida xalqaro o'quv va ma'rifiy tadbirlarni tashkil etadi va o'tkazadi. Akademiyada turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash va ijtimoiy turizm sohasida band bo'lgan xodimlar – menejerlar, gidlar, gid-tarjimonlar, turistik etakchilarining kasbiy bilim darajasini oshirish ko'zda tutilgan. RMATda mutaxassislar tayyorlash turizm sohasida kadrlar tayyorlashning ko'p bosqichli tizimi konsepsiysi asosida bir necha ta'lism darajalari dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi.

### Xulosa va takliflar.

Turizm zamonaviy jamiyatning ijobiy globallashuvining muhim omili bo'lib, madaniyatlar qarama-qarshiligini ularning muloqotiga aylantirishga, tabiiy va madaniy merosni saqlashga hissa qo'shamdi, ijtimoiy bandlikning yangi yo'nalishlarini va boshqa sohalardan ko'ra ko'proq ijtimoiy hodisalarini yaratadi, xalqlar o'rtasida o'zaro tushunish va ishonchni ta'minlash salohiyatiga ega. Bu funksiyani bajarishda esa turizm pedagogikasi xizmat qiladi. Turizm ta'limi umumiyligi ta'limning ajralmas qismi bo'lib, xalqlar va jamiyatlar o'rtasida o'zaro tushunish va hurmatni rivojlantirishga ham yordam beradi.

Turizm pedagogikasi ham turistga nisbatan tarbiyaviy, ham turizm mutaxassisiga nisbatan tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'ziga xos ta'lism sanaladi. Bu ta'lism sahasida nazariyotchilar va amaliyotchilar afzalliklarni tanlashda qadriyat yo'nalishlari, turistning "tabiat – madaniyat – boshqa shaxs" tizimiga qulay va noqulay munosabatlari muammosiga ko'proq e'tibor qaratishi bilan ajralib turadi.

Turizm pedagogikasida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish mehnat bozori ehtiyojlarini malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, pedagogik innovatsiyaning barcha tarkibiy qismlarini kapital funksiyalarini bajarishga qodir bo'lgan intellektual mahsulotga aylantirish vazifalari bilan bevosita bog'liqdir.

Biroq, turizm pedagogikasining asosiy funksiyalarini darhol natija bilan o'chab bo'lmaydi, lekin aynan u butun xalqning ma'naviyati va ma'rifiy darajasini oshirish orqali mamlakatning iqtisodiyotini yangi chegaralarga olib chiqishga qodir.

Yevropa mamlakatlarida turizm xodimlarini tayyorlash amaliyotini tahlil qilish ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar oliy ta'limning ikkilik tizimini shakllantirganligi, bu erda universitet sektori bilan bir qatorda ko'plab ixtisoslashtirilgan muassasalar mavjud degan xulosaga kelishga imkon beradi. Unitar tizim (universitetlar) ham mayjud. Ingliz, fransuz, nemis turizm maktablari amaliyot bilan bog'liq chuqur professional va nutqiy treninglar bilan ta'minlangan. Yagona Yevropa modeli (ACCOR) bo'yicha tadqiqotlar katta ilmiy qiziqish uyg'otadi. Yevropa mamlakatlarida turizm sohasi uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha o'quv dasturlari o'zgaruvchanligi bilan ham ajralib turadi. Bu tajribalarni mukammal, ijodiy o'zlashtirish O'zbekistonda turizm ta'limi rivojlantirishga xizmat qiladi.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- Александрова А.Ю. Международный туризм. Учебник.- М.: КНОРУС, 2010г. - 458с. - [/https://tourlib.net/books\\_tourism/aleks.htm](https://tourlib.net/books_tourism/aleks.htm).
- Биржаков М. Б. Введение в туризм / М. Б. Биржаков. - М.; СПб. 2005. 320 с. - / <https://library.asue.am/open/5919.pdf>.

3. Брандесов, Р.Ф. Избранные труды [Текст] / Р.Ф. Брандесов; под науч. ред. Н.П. Терентьевой. – Челябинск: Изд-во Южно - Урал. Гос. гуман. - пед. ун-та, 2017. - 271с. - [/http://elib.csru.ru/xmlui/bitstream/handle/БРАНДЕСОВ/123456789/2049](http://elib.csru.ru/xmlui/bitstream/handle/БРАНДЕСОВ/123456789/2049).
4. Герасименко В. Г. Туризмология как современное междисциплинарное направление исследования туризма. Известия Сочинского государственного университета. 2013. № 2(25). С.49-54. -[https://tourlib.net/statti\\_tourism/gerasimenko5.htm](https://tourlib.net/statti_tourism/gerasimenko5.htm).
5. Гершунский Б. С. Философия образования XXI века. - М.: "Совершенство", 1998.
6. Долженко Г.П. Туризмология, туризмоведение или туристика. - URL: <http://gennadiy-dolzhenko.ru>.
7. Долженко Г.П., Путрик Ю.С., Савенкова Л.Б. Наука о туризме: основания выбора номинации // География и туризм. 2010. Вып.9. С.3-11.
8. Долженко Г.П., Путрик Ю.С. Туризмоведение - формирующаяся научная дисциплина о сфере туризма // Вопросы туризмоведения. 2012. № 2. С.5-Долженко Г.П. Новая дисциплина в ЮФУ - «История и методология туризмоведения // Вопросы туризмоведения. 2012. №3. С.89-95.
9. Долженко Г. П. Туризмоведение / Г. П. Долженко, О. В. Ивлиева; – Ростов-на-Дону: Южный федеральный университет, 2014. – Выпуск 1. – 168 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=445306&razdel=299](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=445306&razdel=299) (дата обращения: 23.01.2024). – Библиогр. в кн. – ISBN 978-5-9275-1247-8.
10. Долженко Г. П. , Ивлиева О. В. Туризмоведение: монография. Выпуск 1. Ростов-на-Дону: Южный федеральный университет, 2014. - 168 с. - ISBN: 978-5-9275-1247-8. - [https://biblioclub.ru/index.php?page=book\\_red&id=445306&razdel=299](https://biblioclub.ru/index.php?page=book_red&id=445306&razdel=299).
11. Дольская О. А., Голозубов А. В., Городыская О. Н. Человек в современном мире: на пути к новой парадигме образования. Монография. Харьков. НТУ «ХПИ». 2016. - 216с. - <https://core.ac.uk/download/pdf/162467513.pdf>.
12. Ермоленко А. Коммуникативная философия: монография / А. Ермоленко. – М., 2003.
13. Зорин И. В. Теоретические основы профессионального туристского образования: монография / И. В. Зорин. - М.: Советский спорт, 2001. - 288с. - <https://www.dissertcat.com/content/teoreticheskie-osnovy-formirovaniya-soderzhaniya-professionalnogo-turistskogo-obrazovaniya>.
14. Зорин И.В., Квартальнов В.А. Туристский терминологический словарь. М.: Советский спорт, 1999. 462 с.
15. Игнатьева И. Ф. Наука о туризме в контексте развития туристского образования Key Directions and Characteristics of Research Organization in Contemporary World. - 159 - 166с. - <https://bces-conference-books.org/onewebmedia/2015.2.159-166.Ignatyeva.pdf>.
16. Келлер П. Основы туристского образования и исследований туризма в современном обществе // Вестник РМАТ. 2011. № 2. С.4.
17. Кремень В. Г. Философия человека центризма в образовательной среде. /В. Г. Кремень. - 2-е изд. - М.: Общество «Знания» Украины, 2010.
18. Лукьянова Л.Г. Образование в туризме: учеб. - метод, пособие. / Л. Г. Лукьянова. – М., 2008.
19. Лукьянова Л.Г. Проблемология образования в системе стандартизации содержания обучения в туризме и гостеприимстве. Тезисы Международной научно-практической конференции. «Туристский, гостиничный и ресторанный бизнес: инновации и тренды". (г. Киев, 7 апреля 2016 г.) - К.: КНТЭУ, 2016. 362 с. С.329-331. - <https://tourlib.net/search.htm>.
20. Лукьянова Л. Г. Феномен проблемы образования в туризме и гостеприимстве «Киевский университет туризма, экономики и права», г. Киев /Учёные записки Крымского федерального университета имени В. И. Вернадского. География. Геология. Том 2 (68). № 3. 2016 г. С. 101–101.
21. Любицева О. О. Туризмоведение: поступление в профессию / О. О. Любицевая, В. К. Бабарицкая. - К.: Изд. - полиграф, центр «Киевский университет», 2008.

22. Мищенко Я.В. Туризм как объект научного исследования // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 1-1.; - URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=17206> (дата обращения: 26.01.2023).
23. Образовательный туризм в России: учебное пособие для бакалавриата и магистратуры / Ю.С. Путрик, В.С. Новиков, С.Ю. Житенёв, А.П. Соловьёв, И.А. Дрого, С.К. Губенко; под ред. С. Ю. Житенёва. - М.: Издательство Юрайт, 2018. - 198 с. - <https://biblio-online.ru/book/obrazovatelnyy-turizm-v-rossii-420529>.
24. Олейник Я. Б. Теоретические основы туризмологии: учеб. пособ. / Я. Б. Олейник, А. В. Степаненко. – К.: Ника-Центр, 2005.
25. Основы туризма. /Под научной редакцией доктора юридических наук Е.Л. Писаревского Учебник. Москва. 2014. - 314с. [http://elib.fa.ru/ebook/basics\\_of\\_tourism.pdf/download/basics\\_of\\_tourism.pdf](http://elib.fa.ru/ebook/basics_of_tourism.pdf/download/basics_of_tourism.pdf).
26. Пазенок В. С. Туризмология. Теоретический обзор / В. С. Пазенок. – М., Издательство: Альтерпрес 2012. - 276с. - <https://profbook.com.ua/turizmologiya.html>.
27. Пазенок В. С. Философия туризма. Туризмология: концептуальные основы теории туризма: науч. - учеб. изд. / В. С. Пазенок. КУТЭП, 2008. 378с.
28. Приезжева Е. М. Педагогические условия подготовки студентов к анимационной деятельности в процессе профессионального туристского образования: дис. канд. пед, наук: 13.00.08 /Э. М. Приезжева. - М.: РГБ, 2003.
29. Туризмология (теория туризма): учеб. - Метод, пособие, со спеша курса / В. С. Пазенок, В. К. Федорченко, О. А. Кручек, И. М. Минич. - К.: КУТЭП, 2010.
30. Устименко Л.М. История туризма / Л.М. Устименко, И. Ю. Афанасьев. – М., 2005. – 320с. - [https://tourlib.net/books\\_history/ustymenko.htm](https://tourlib.net/books_history/ustymenko.htm).
31. Ушинский К. Д. Педагогические сочинения: в 6 т. /К.Д. Ушинский, [сост. SF Егоров]. - М: Педагогика, 1988. - Т. 5. - [http://elib.gnpbu.ru/text/ushinskiy\\_sobranie-sochineniy\\_t6\\_1949/go,12;fs,1/](http://elib.gnpbu.ru/text/ushinskiy_sobranie-sochineniy_t6_1949/go,12;fs,1/)
32. Федорченко В. К. Педагогика туризма: учеб, пособие. /В. К. Федорченко, Н. А. Фоменко, М. И. Скрипник, Г. С. Цехмистрова. - К.: Слово, 2004. – 296с.
33. Федорченко В. К. Подготовка специалистов для сферы туризма: теоретические и методологические аспекты /В. К. Федорченко. - К. Высшая школа, 2002. - 399с.
34. Федорченко В.К. Теоретико-методологические основы туризмологии как науки о туризме // Вопросы туризм ведения: федеральный образовательный и научно-практический журнал. 2013. № 4. С.14.
35. Федорченко В.К. Туризм логия как наука. Основные парадигмы теории туризма. Вестник РМАТ № 2(8). 2013. С.3-11. -<https://cyberleninka.ru/article/n/turizmologiya-kak-nauka-osnovnye-paradigmy-teorii-turizma/viewer>.
36. Философия туризма: учеб, пособие. / под ред. В. С. Пазенко, В. К. Федорченко. - М.: Кондор, 2004. 372с.
37. Философские очерки туризма: науч. - учеб. изд. / под ред. д-ра филос. наук, проф., чл.-корр. НАН Украины В. С. Пазенко. – К., 2005.
38. Фоменко Н. А. Педагогика высшей школы: методология, состояние стандартизация туристического образования / Н. А. Фоменко. - К.: Изд. дом «Слово», 2005.
39. Фоменко Н. А. Стандартизация туристского образования: теория, методика / Н. А. Фоменко. – М., 2011.
40. Зонал сиёсат: методология, хорижий тажриба ва қўллаш йўналишлари. Х.Р. Хамроев - Монография. Тошкент.“Фан” нашриёти. 2008й. 496б.

## SANOATNI YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda sanoatni yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida barqaror rivojlantirishning hozirgi holati va ustuvor yo'nalishlari, tahlil qilingan, mamlakat sanoati tarmoqlarining mintaqalarda rivojlanish holati va istiqbollari tahlil qilingan. Sanoatning energetika tarmog'i rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan. Sanoat va uning etakchi tarmoqlari, jumladan, energetikaning yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida istiqbolda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilangan.

**Аннотация:** В статье рассматриваются приоритетные направление промышленного развития в Узбекистане в период перехода к зелёной экономики. Проанализировано состояние развития промышленности страны и промышленных отраслей в регионах, а также перспективы их развития. Проанализировано современное состояние развития энергетики из отраслей промышленности. На основе принципов зеленой экономики определены приоритетные направления дальнейшего развития отраслей промышленности и ее ведущих секторов, в том числе энергетического отрасля.

**Abstract:** The article examines the priority directions of industrial development in Uzbekistan during the transition to the green economy. The state of development of industry in countries and industrial sectors in the regions, as well as the prospects for their development, are analyzed. The current state of energy development in industry is analyzed. Based on the end of the green economy Small priority areas for the further development of industrial sectors and its leading sectors, including the energy industry

**Kalit so'zlar:** sanoat, yashil iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot tamoyillari, barqaror rivojlanish, hududlar, sanoatni yashillashtirish, atrof-muhit muhofazasi, mintaqqa, sanoat taraqqiyoti.

**Ключевые слова:** промышленность, зелёная экономика, принципы зелёной экономики, устойчивое развитие, территории, экологизация промышленности, охрана окружающей среды, регион, развитие промышленности.

**Key words:** industry, green economy, principles of green economy, sustainable development, territories, greening of industry, environmental protection, region, industrial development.

**Kirish.** Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish zamonaviy dunyoda har bir mamlakat va uning mintqalari samarali rivojlanishida davlat siyosatining uzviy bir qismi sanalib, davlat boshqaruvining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Har bir mamlakatda uning mintaqalari o'zlarining hozirgi qaysidir rivojlanish bosqichlarida yashil iqtisodiyotning ma'lum bir yo'nalishiga ustunlik beradi. Mamlakat mintaqalarida yashil iqtisodiyotning joriy qilinganlik darajasi uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini, barqarorligini, raqobatbardoshligini ko'rsatib beruvchi omillardan biriga aylandi.

Yashil iqtisodiyotning joriy qilinganligi darajasi mintaqalar va mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab berar ekan, albatta, har bir mamlakat va uning mintaqalari ishlab chiqarishning ushbu bosqichiga o'tishi talab etiladi. Mamlakat va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyotni joriy qilish ularning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy rivojlanishini belgilab berar ekan, har bir mintaqqa va mamlakat ushbu bosqichga tezroq va samarali o'tishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi va takomillashib borishi mamlakat mintaqalarida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining rivojlanishi darajasini belgilab beruvchi ahamiyatga ega. Sanoatning innovatsion rivojlanishi mamlakatlar va ularning mintaqalaridagi iqtisodiyot tarmoqlarining rivojlanish darajasini belgilab beradi.

Jahon iqtisodiyoti Kovid-19 pandemiyasida katta zarar ko‘rishi bilan birga, postpandemiya sharoitida iqtisodiyot tarmoqlari o‘rtasida hamda tarmoqlar ichida rivojlanish tendensiyalari katta o‘zgarishga yuz tutdi.

Hozirgi zamon sanoatlashuvining o‘ziga xos muhim jihat yuqori texnologik va innovasion rivojlanish hamda raqamlashuvning keng joriy qilinayotganligidir. Sanoat boshqa tarmoqlarga qaraganda, ayniqsa, qishloq xo‘jaligiga nisbatan ko‘proq ish o‘rinlarini yaratganligi hamda mehnatga haq to‘lashda nisbatan yuqori ko‘rsatkichga egaligi bilan farqlanadi. Jahon sanoat ishlab chiqarishi raqamlashib, yuqori texnologik ishlab chiqarishga transformasiyalashib bormoqda.

YuNIDO mutaxassislarining fikricha sanoatda bandlik ko‘rsatkichlari ortib borishi qashoqlikni bartaraf etishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi va BMT ning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim yo‘llardan biri bo‘lib hisoblanadi .O‘zbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari tadqiq etilmagan. Sanoatning raqamlashishi va yashillashishi darajalari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarining ham ularga bog‘liq holda xuddi shunday raqamlashishi va yashillashishi darajasiga bevosita ta’sir o‘tkazadi. Sanoatning yashillashuvi darajasi ishlab chiqarish jarayonlarining va texnologik darajaning yuqori sifatini talab etadi, bu o‘z navbatida iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, jumladan, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining yashillashishini hamda texnologik jihatdan murakkablashishiga imkon yaratadi. Shu sababdan, aynan sanoatning yashillashishini tezlashtirish, boshqa tarmoqlarning yashillashishi darajasini oshiradi. Mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishda yashil iqtisodiyotni joriy qilishning nazariy-ilmiy asoslarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqish mazkur masalaning dolzarb mavzuligini namoyon qiladi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror o‘sish maqsadlarida sanoatning yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlanishi masalalari iqtisodiy adabiyotlarda keng tadqiq etilmagan. Bu yo‘nalish iqtisodiy faoliyatda yangi yo‘nalish bo‘lganligi bois, jahon iqtisodichi-olimlari tomonidan boshqa yo‘nalishlarga nisbatan kam tadqiq etilgan. Shunga qaramasdan, qator olimlar bu yo‘nalishda tadqiqtolar olib borishgan va olib bormoqdalar.

Yashil iqtisodiyot sharoitida sanoatni rivojlantirish masalalari yuzasidan xorijlik olimlardan N.V.Pakhomova, K.K.Rikhter, G.B.Malyshkov, Y.A. Lyaskovskaya, K.A.Grigureva, T.M.Isachenko, I.I.Kononovalar ilmiy tadqiqtolar olib borishgan bo‘lsa, mahalliy olimlardan A.A.Isadjanov, E.A.Mo‘minova va boshqalar qator ilmiy tadqiqtolar olib borganlar.

Xususan, E.A.Mo‘minova o‘z tadqiqtolarida O‘zbekistonda sanoat tarmog‘ining rivojlanishi, erkin iqtisodiy hududlarning ko‘payishi, eksport mahsulotlarining ortishi natijasida atrof-muhitga ta’sir darajasi o‘rganilgan. Sanoat korxonalari tomonidan chiqarilayotgan chiqindilar insonga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik muammolar yuzaga keltirishi va butun dunyoda sanoatning rivojlanishi yashil iqtisodiyotga o‘tish zarurligi bayon qilingan<sup>1</sup>.

A.A.Isadjanovning tadqiqtolarida O‘zbekistonda tarkibiy o‘zgarishlarni chuqurlashtirish, milliy iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarini modernizasiya va diversifikasiya qilishda BMTning «Barqaror rivojlanish» konsepsiyasining ahamiyati, iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish maqsad va vazifalari yoritilgan. Alovida e’tibor “Yashil” iqtisodiyotni shakllantirish, “yashil” o‘sish va rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan<sup>2</sup>.

**Tadqiqt metodologiyasi.** Tadqiqt jarayonida mavzu yuzasidan O‘zbekiston Respublikasining qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari, asarlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy sohalardagi tanqli olimlarning ilmiy asarlari, ularning mazmun, mohiyati o‘rganilib, mavzuni ochib berishda mavjud

<sup>1</sup> Mo‘minova E.A.. Sanoat tarmog‘ining rivojlanishi yashil iqtisodiyotga o‘tishning zarurati sifatida. Iqtisodiyot va moliya. 2023, 6 9166). – B. 7-11. <https://cyberleninka.ru/article/n/sanoat-tarmo-ining-rivozhlanishi-yashil-iqtisodiyotga-tishning-zarurati-sifatida>.

<sup>2</sup> Isadjanov A.A. “Yashil iqtisodiyot”: xususiyatlari va rivojlanish omillari. Iqtisodiyot va ta’lim. 2020. #1. – B. 12-18. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/download/14/10/33>.

ko'rsatkichlar statistik tahlil qilindi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rghanishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil kabi usullari qo'llanilgan.

**Tahlil va natijalar.** Jahon umumiyligi energiya sig'imi (YaIM birligiga nisbatan energiyaning umumiyligi iste'moli) 2022 yilda 2021 yilga nisbatan 1,2 %ga pasaydi, bu raqam 2010-2019 yillardagi (yiliga -1,9 %)ga nisbatan pasayib bormoqda. Jahon iqtisodiyoti energiya sig'imdonligi turli mintaqalarda turlichaligi bilan farqlanadi. Bunga sabab iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi va tarmoqlarda energiyadan foydalanish samaradorligining turlichaligidir<sup>1</sup>.

O'zbekistonda iqtisodiyot tarmoqlari so'nggi yillarda tarkibiy o'zgarishlar bilan rivojlanib, o'zgarib bormoqda. 2016 yildan keyin sanoatning mamlakat va uning mintaqalarida rivojlanish darajasi keskin o'zgardi. Biroq, mamlakat sanoat ishlab chiqarishining energiya talabligi yuqori darajada saqlanib turibdi. 1990-2023 yillarda YaIMning energiya sig'imlik ko'rsatkichi 0,608 dan 0,156 ga tushdi, ya'ni 3,89 martaga pasaygan. Biroq shunday bo'lsada, mamlakat hali bu ko'rsatkich bo'yicha jahon mamlakatlari orasida eng yomon ko'rsatkichli 10 talikka kiradi. Solishtirishi uchun ko'rsak, bu raqamlar Buyuk Britaniyada – 0,05, Turkiyada – 0,056, Ruminiya va Kolumbiyada – 0,058 ga teng. 2022 yilda Jahon YaIM energiya sig'imi o'rtacha ko'rsatkichi 0,112 ni tashkil etgan<sup>2</sup>.


Sanoat O'zbekistonda iqtisodiyotning barqaror rivojlanib borayotgan sohalaridan biridir. Mamlakat iqtisodiyoti tarixida sanoat uzoq yillar tog'-kon sanoati, qazib oluvchi sanoatga ixtisoslashgan va qo'shilgan qiymat ulushi juda past tarmoqlardan bo'lib kelgan bo'lsada, 2016 yildan keyin ushbu sohada ham qo'shilgan qiymat ulushini oshirish, qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Sanoatning YaIMdagi ulushi so'nggi 4 yilda 26-27 foiz atrofida saqlanib turibdi. Sanoat indeksi 2022 yilda 2010 yilga nisbatan 194,6 foizga o'sgan holda, bu ko'rsatkich tog'-kon sanoatida 130,3 foizga, qayta ishlovchi sanoatda 232,9 foizga o'sgan<sup>3</sup>.

Shu bilan birga, hududlar kesimida sanoatning ko'rsatkichlari turli yo'nalishlarda mintaqalar orasida keskin tafovut hanuzgacha saqlanib qolmoqda. Buning asosiy sabablaridan biri viloyatlarning hududiy ixtisoslashuvindir. Ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yalpi sanoat mahsuloti tarkibida hududlarning ulushi keskinligi saqlanib qolmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri (18,4 foiz), Toshkent viloyati (17,4 foiz) va Navoiy viloyati (15,7 foiz) ulushlari boshqa hududlarga nisbatan juda katta hissaga ega bo'lib, respublika sanaot ishlab chiqarishining asosiy quvvatlari ushbu mintaqalarda joylashganini ko'ramiz. Shu bilan birga Surxondaryo viloyati (1,3 foiz), Jizzax viloyati (1,7 foiz), Xorazm viloyati (2,8 foiz) va Sirdaryo viloyati (2,3 foiz) ulushi juda pastligi bilan ajralib turadi (1-rasm).

<sup>1</sup> <https://energystats.enerdata.net/total-energy/world-energy-intensity-gdp-data.html> (2023 йил 27 сентябрда мурожаат қлинганди).


<sup>2</sup> <https://energystats.enerdata.net/total-energy/world-energy-intensity-gdp-data.html>.

<sup>3</sup> O'zbekiston sanoati 2019-2022. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistik agentligi. Toshkent, 2023. – 150 b.



**1-rasm. Umumi sanoat ishlab chiqarishda hududlarning o'rtacha ulushi (2018-2022 yillar o'rtacha)<sup>1</sup>**

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi respublikada so'nggi 5 yil (2018-2022 yillar)da 2 martadan ortiq o'sdi. 2018 yilda aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi o'rtacha 7,1 mln so'm bo'lgan bo'lsa, 2022 yil yakuni bilan bu ko'rsatkich o'rtacha 15,5 mln so'mni tashkil etdi. Hududlar bo'yicha bu raqamning taqsimlanishi ko'rib chiqsak, bunda viloyatlardan o'rtaida katta tafovut mavjudligini ko'ramiz (2-rasm).



**2- rasm. Hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichi (2022 yil)<sup>2</sup>.**

Rasmdagi ma'lumotdan ko'rindan, Navoiy va Tashkent viloyatlari hamda Tashkent shahrida sanoat ishlab chiqarishi boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarga ega.

Energetika tarmog'i sanoat tarmoqlari ichida yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida mintaqalar barqaror rivojlanishini belgilab beruvchi muhim va asosiy sohalardan biri bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 2 dekabrdagi PQ-436-sonli Qarori

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif ishlab chiqqan

<sup>2</sup> Mavjud ma'lumotlар асосида муаллиф ишлаб чиқкан.

bilan sanoat tarmoqlarida "yashil" iqtisodiyotga o'tish va energiya tejamkorligini ta'minlash bo'yicha konsepsiysi hamda 2022-2026 yillarda iqtisodiyot tarmoqlarida yoqilg'i-energetika resurslarini tejashning maqsadli parametrlari tasdiqlandi. Mazkur Qarorga asosan, respublikadagi 25 ta korxona va tashkilotda ishlab chiqarilgan mahsulotning energiya sig'imi ko'rsatkichini 2022-2026 yillarda yoqilg'i-energetika resurslari iste'molchilarini tomonidan 3,9 mlrd. metr<sup>3</sup> tabiiy gaz, 4 mlrd. kVt. soat elektr energiyasi va 21 ming tonna neft mahsulotlarini tejash orqali energiya sig'imlik darajasini 20 foizga kamaytirish belgilangan.

Elektr energiyasini hududlarga barqaror etkazib berish, aholini zamonaviy energiya ta'minoti tizimi bilan ta'minlash mamlakatning energiya sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi bo'lib hisoblanadi. Hozirda elektr bilan ta'minlashda hududlarda ayrim hollarda uzilishlar sodir bo'lsada, mamlakat aholisining 100 foizi elektr energiya bilan ta'minlanganligi O'zbekistonning dunyo reytinglarida bu muhim ko'rsatkich borasida yaxshi natijalarga egaligidan dalolat beradi.

Olib borilayotgan samarali islohotlar natijasida 2016-2022 yillarda energiya bilan barqaror ta'minlashda ijobiy natijalarga erishildi, 5 ming MVt hajmda yangi quvvatlar ishga tushirildi, bu o'tgan davrga nisbatan 1,5 marta ko'pdir, 45 ming km elektr tarmoqlari liniyasi va 13 ming ta transformatorlar yangilandi, bu 2015 yilda nisbatan 3,5 marta ko'pdir. Elektr energiya ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda yillik 57,7 mlrd kVt/soat dan 2022 yilda 73,1 mlrd kVt/soat gacha, ya'ni 1,26 barobarga oshganini ko'ramiz.

Sanoat mahsulotlari tarkibida tog'-kon sanoati – 9,5 foiz, ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari – 83,2 foiz, elektr, gaz-bug' bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash – 6,8 foiz, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 0,5 foizni tashkil etmoqda. Ishlab chiqariladigan sanoat mahsulotlari tarkibida mashina va asbob-uskunalar ishlab chiqarish hamda ta'mirlash – 20,3 foiz, metallurgiya – 23,2 foiz, to'qimachilik, kiyim va teri mahsulotlari ishlab chiqarish – 17,9 foiz, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlati – 17,2 foiz, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa mahsulotlari – 9,2 foizni tashkil etdi.

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining texnologik darajasi bo'yicha tahlil qilsak, unda yuqori va o'rta-yuqori texnologiyali mahsulotlarning ulushi juda kamligini ko'ramiz. 2022 yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 38,3 foizi quyi texnologiyali, 36,4 foizi o'rta-quyi texnologiyali, 23,2 foizi o'rta-yuqori texnologiyali va 2,1 foizi yuqori texnologiyali mahsulotlar tarkibiga kiradi .

O'zbekiston mintaqalarida sanoatning rivojlanishida uning tarmoqlari orasida qayta ishlovchi sanoat tarmoqlari katta ulushga ega. So'nggi 3 yilda ushbu tarmoqlarning mamlakat YaIMidagi ulushi barqaror rivojlanib 20 foizga etdi. Mazkur soha tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga va bularda tegishli ishchi o'rinnarining yaratilishiga oziq-ovqat (shu davrda 27 foizga o'sdi), tekstil va to'qimachilik (shu davrda 47 foizga o'sdi) sanoati tarmoqlari o'zlarining salmoqli hissalarini qo'shdi. Ayniqsa, kimyo (16 foiz), metallurgiya (24 foiz) va mashinasozlik (30 foiz) tarmoqlari ancha barqaror rivojlandi.

Sanoatni rivojlantirish bilan bir qatorda mamlakat mintaqalarining eksport sahohiyatini ham maksimal darajada oshirish bo'yicha islohotlar olib borilmoqda. 2019 yilda mamlakat yalpi eksporti tarkibida mineral yoqilg'i va paxta xom ashyosining umumiy ulushi 26 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021 yil yakunlari bo'yicha bu ko'rsatkich 17 foizni tashkil qildi. Eksport sohasida mintaqalarda qo'shilgan qiymat darajasi nisbatan yuqori bo'lган mahsulotlarni eksportga yo'naltirishga urg'u berilmoqda.

O'zbekiston sanoat rivojlanishi yuqori intensivlikda bo'lмаган mamlakatlardan hisoblanishi bilan birga mazkur tarmoqda yashil iqtisodiyot tamoyillari kam shakllangan mamlakatlardan sanaladi. Mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish yangi yo'nalish bo'lib, asosan 2017 yildan keyin e'tibor qaratila boshlandi. Mazkur yo'nalishda huquqiy-me'yoriy asoslar ham yaqin o'tmishtan shakllanib kelmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni hamda 2017 yil 26 maydagi PQ 3012 sonli "2017-2021 yillarda qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya samaradorligini oshirish

chora-tadbirlari dasturi to'g'risida"gi Qarori, 2019 yilning 30 oktyabridagi PF-5863 sonli "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining Atrof- muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoni shular jumlasidan. Mazkur hujjatlarda yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston iqtisodiyotining strategik yo'nalishlaridan ekanligi ta'kidlab o'tilgan.

Elektr energiya ishlab chiqarish hajmi 2015 yilda yillik 57,7 mlrd kVt/soat dan 2022 yilda 73,1 mlrd kVt/soat gacha, ya'ni 1,26 barobarga oshganini ko'ramiz.

Ayniqsa, aholi xonadonlarini elektr energiyasi bilan ta'minlashning o'sganini kuzatish mumkin. 2016-2022 yillarda aholi xonadonlariga elektr ta'minoti yillik o'rtacha 6,5 foizga o'sib bordi.

Biroq, aholi xonadonlarida elektr-znergiya va tabiiy gazning ta'minotida ayrim hududlarda tez-tez uzilishlarning sodir bo'lishi, ular tomonidan atrof-muhitni ifloslanishida katta zarar keltiruvchi yonilg'i manbalari – o'tin, ko'mirdan foydalanisha sabab bo'lmoqda. Har bir 5-inchi xonodon, asosan qishloq joylarda nisbatan samarasiz, atrof-muhitni ifloslantirishda zarari katta yonilg'ilardan foydalanmoqda. Toza yonilg'i turidan foydalanuvchi aholining ulushi 2019 yildagi 97,1 foizdan 2022 yilda 93,4 foizga tushgan.

Yana bir muhim indikatorni tahlil qilsak, unda ham pasayishni kuzatamiz. Umumiy elektr energiyasi ishlab chiqarish tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) hisobidan elektr energiya ishlab chiqarishning ulushi ham pasayib bormoqda. 2016 yilda jami ishlab chiqarilgan elektr energiya tarkibida QTEM dan ishlab chiqarilgan elektr energiya ulushi 11,6 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2022 yilda uning ulushi 6,8 foizni tashkil qildi. Muallif buning asosiy sabablaridan biri sifatida sohada haligacha investision cheklavlarning mavjudligini, tarmoqqa etarli darajada investisiyalar kiritilmayotganida deb hisoblaydi. Tahlillar ko'rsatmoqdaki, sohaga kiritilayotgan investisiyalarning jami investisiyalarga nisbatan ulushi 2018 yildagi 12,4 foizdan 2022 yilda 7,8 foizga tushgan.

2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiysi"da iqtisodiyotni ekologiyalashtirish sohasida quyidagilar mamlakatda yuzaga kelgan ekologik muammolarning asosiy echim yo'llari sifatida belgilangan:

- resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish faoliyatining samaradorligini oshirish, shuningdek, "yashil infratuzilma"ni yaratish;
- milliy iqtisodiyotni suvdan tejab foydalanish, qayta tiklanadigan energiya texnologiyalarini rivojlantirish va keng qo'llashni rag'batlantirishga yo'naltirib o'zgartirish, shuningdek, yuqori energiya samarador standartlar asosida inshootlar barpo etish;
- ekologik jihatlarning davlat sektoral siyosatiga, shu jumladan, rejalar, dasturlar va boshqa strategik hujjatlarni strategik ekologik baholash mexanizmini joriy etish, shuningdek, alohida loyihalarning atrof muhitga ta'sirini baholash orqali integratsiyalashuvini ta'minlash;
- ekotizimlarning qayta tiklanish imkoniyatlari va potentsial sig'imini baholash parametrlarini ishlab chiqish hamda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirishda ushbu parametrlarni hisobga olish tartib-taomilini joriy etish;
- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini ekologik sug'urtalash va ekologik auditdan o'tkazish tizimini tatbiq etish;
- atrof muhitning sifatini belgilovchi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha xalqaro standartlarga (BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi, YeI va boshqalar) o'tishni ta'minlash;
- davlat xaridlarini amalga oshirishda ekologik standartlarni qo'llashni kengaytirish.

Respublikada sanoatning ko'lamin kengaytirish bilan bir qatorda uni yashillashuv, ekologiyalashuv yo'nalishlarida rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar mavjud. Shunday yo'nalishlardan biri bu quyosh energiyasidan elektr energiyasi ishlab chiqarishdir. 2021 yilning 27 avgust kuni Navoiy viloyatida O'zbekistonda birinchi quyosh elektr stantsiyasi ishga tushirildi. Uning quvvati 100 mVt. Mazkur korxona yiliga 252 mln. kilovat elektr energiya ishlab chiqaradi. Mazkur inshoot bir yilda 80 mln. kub metr tabiiy gaz iste'molini tejash bilan birga atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlarini 160 ming tonnaga kamayishiga asos bo'ladi.

При разработке системы управления промышленными предприятиями специалисту необходимы такие навыки, как глубокое знание предприятия, творческое мышление и разработка стратегии развития. Поэтому важно периодически пересматривать систему управления предприятиями для решения поставленных задач. В условиях рыночных отношений требуется организовать предпринимательскую деятельность на основе современных принципов управления, которые позволяют оптимально использовать все ресурсы и достичь максимальной цели предприятия.

#### **Методологические аспекты исследования.**

Данное исследование опирается на общенакальные методы и специальные приемы анализа экономического состояния предприятий. В ходе исследования учитываются и применяются такие научные понятия, как «эффективность», «управление предприятием», «планирование» и «механизм и стратегия управления предприятием». Также в работе использовались результаты, полученные другими исследователями, занимающимися разработкой инструментов управления химическими предприятиями и повышением их эффективности, а также статистическая отчетность предприятий и разработка нормативных документов.

#### **Мировой опыт исследования.**

В состав Азиатско-Тихоокеанского экономического сотрудничества (АТЭС) в настоящее время входит 21 член из различных социально-экономических формирований, включая большинство стран, имеющих побережье Тихого океана. В области химического управления в этом регионе лидируют США, Канада, Япония и другие развитые страны. Они уже создали относительно совершенные системы управления химическими веществами со специальными правилами, охватывающими оценку, регистрацию, транспортировку и отходы химических веществ. Их основной задачей является улучшение оценки и

<sup>1</sup> Антоненко В. М., Катранжи Л. Л. Дискусійні питання щодо визначення сутності поняття «Організаційно-економічний механізм» // Східна Європа: економіка, бізнес та управління. 2021. Вип. 5 (32) С. 125-134. <https://doi.org/10.32782/easterneurope.32-17>, Купрійшвили Е. Т., Соловьев Б. А., Тимофеев А. И. Экономическая категория "эффективность" в современной науке // Вестник евразийской науки. 2021. Т. 13. №2. С. 24.

управления рисками существующих химических веществ, расширение базы данных химических данных по окружающей среде и здоровью, а также продвижение экологически чистых химических технологий и альтернатив и т. д. Они являются инициаторами международных конвенций и программ сотрудничества и активно продвигают их реализацию.

Передовой уровень среди них уже имеет опыт управления опасными химическими веществами, а также управления отходами. Некоторые из них находились на самой ранней стадии модернизации экологически чистых химических технологий. Их беспокоило то, как улучшить свою систему оценки, регистрации и управления полным жизненным циклом как существующих, так и новых химических веществ. Кроме того, они пытались развивать исследования в области зеленых технологий и химиков. Основная группа начала с химического регулирования пестицидов с целью создания национальной системы химического регулирования всех химических веществ. Большинство из них являются участниками международных конвенций и программ сотрудничества и пытаются улучшить национальный потенциал управления химическими веществами посредством их реализации<sup>1</sup>.

Также необходимо подчеркнуть, что в настоящее время мы переживаем четвертую промышленную революцию (Индустрия 4.0). В широком смысле это определяется как пересечение данных, машин и платформ для обеспечения интеграции данных, повышения автоматизации, улучшения процесса принятия решений и ускорения инноваций.

Инновации всегда были основной движущей силой роста и развития химической промышленности, но технологический прогресс – в сочетании с меняющейся динамикой рынка – заставил переосмыслить операционные модели. Поддержание статус-кво больше не является эффективной стратегией. Для нашей отрасли — это период преобразований. В химических научно-исследовательских лабораториях Индустрия 4.0 почти повсеместно включает в себя элементы цифровой трансформации, при этом внимание уделяется некоторым вариантам «Лаборатории будущего». Это «Химическая промышленность 4.0», и цифровые технологии являются ее основной движущей силой.

### **Анализ и результат.**

Существует несколько основных направлений, которые можно предпринять для совершенствования системы управления в химической промышленности Узбекистана, которые имеют решающее значение для развития и успеха в данной отрасли, к ним относится:

*Модернизация инфраструктуры.* Модернизация инфраструктуры химической промышленности необходима для оптимизации производственных процессов и повышения эффективности. Это включает в себя инвестиции в передовые технологии, оборудование и объекты, соответствующие международным стандартам. Модернизируя инфраструктуру, Узбекистан может повысить свою конкурентоспособность на мировом химическом рынке.

*Внедрение инновационных технологий:* внедрение инновационных технологий является ключом к стимулированию роста и повышению производительности химической промышленности. Узбекистану следует сосредоточить усилия на исследованиях и разработках для выявления и внедрения передовых технологий, которые могут улучшить методы производства, снизить затраты и улучшить качество продукции. Это позволит отрасли идти в ногу с глобальными достижениями и удовлетворять меняющиеся потребности рынка.

*Экологическая устойчивость:* Обеспечение экологической устойчивости является важнейшим аспектом совершенствования системы управления в химической промышленности. Узбекистану следует уделить приоритетное внимание внедрению экологически чистых методов, таких как управление отходами и меры по контролю

<sup>1</sup> Ying Wang, Entao Wu, Xinhua Gao, Qiong Ding Global governance on chemical sound management and challenges in Asia-Pacific Region/ Global governance on chemical sound management and challenges in Asia-Pacific Region/ Procedia Environmental Sciences 31 (2016) 911 – 916.

загрязнения. Внедряя более чистые производственные процессы и придерживаясь международных экологических стандартов, отрасль может минимизировать свое экологическое воздействие и внести вклад в устойчивое развитие.

*Развитие человеческого капитала.* Инвестиции в человеческий капитал имеют решающее значение для долгосрочного успеха химической промышленности. Узбекистану следует сосредоточиться на развитии квалифицированной рабочей силы путем предоставления программ обучения и образовательных возможностей, соответствующих потребностям отрасли. Воспитывая таланты и повышая знания и навыки сотрудников, отрасль может способствовать инновациям, производительности и общей производительности.

*Нормативно-правовая база:* Создание надежной нормативно-правовой базы имеет важное значение для эффективного управления химической промышленностью. Узбекистан должен принять и обеспечить соблюдение правил, обеспечивающих безопасность, контроль качества и соблюдение международных стандартов. Прозрачная и подотчетная система регулирования создаст благоприятную бизнес-среду, привлечет инвестиции и будет способствовать устойчивому росту сектора.

#### **Вывод.**

На основе обобщения и анализа результатов предыдущих исследований, а также использования практического опыта других стран, можно выделить следующие основные направления совершенствования системы управления химической отрасли в Республике Узбекистан:

1. Внедрение системы управления качеством: Химические предприятия должны внедрить системы управления качеством, такие как ISO 9001, чтобы обеспечить высокие стандарты качества продукции, процессов и услуг.

2. Развитие инноваций и технологий: Необходимо активно развивать инновационные технологии и процессы в химической отрасли.

3. Развитие человеческого капитала: Важным аспектом совершенствования системы управления является развитие квалифицированного персонала.

4. Содействие и поддержка предпринимательства: Поддержка и стимулирование предпринимательской активности в химической отрасли способствует развитию конкурентоспособных предприятий.

Эти основные направления совершенствования системы управления химической отрасли в Республике Узбекистан помогут обеспечить устойчивое развитие отрасли, повысить ее конкурентоспособность и снизить негативное воздействие на окружающую среду.

#### **Список литературы:**

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 No. PF-60 "On the development strategy of the new Uzbekistan for 2022-2026". // [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Антоненко В. М., Катранжи Л. Л. Дискусійні питання щодо визначення сутності поняття «Організаційно-економічний механізм» // Східна європа: економіка, бізнес та управління. 2021. Вип. 5 (32) С. 125-134. <https://doi.org/10.32782/easterneurope.32-17>, Купрейшвили Е. Т., Соловьев Б. А., Тимофеев А. И. Экономическая категория" эффективность" в современной науке // Вестник евразийской науки. 2021. Т. 13. №2. С. 24.
3. Назарова Л. Т Совершенствование управления организационно-экономическими механизмами предприятий химической промышленности// Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.ru/> Т. 8. №11. 2022.
4. V.Pelantova Good integration for the chemical industry/20th International Congress of Chemical and Process Engineering CHISA 2012 25 – 29 August 2012, Prague, Czech Republic.
5. R.U.Halden Advances in sustainable chemistry and engineering for a circular economy. Annual Review of Chemical and Biomolecular Engineering, 6, 1-18. 2015.

6. O.Renn & K.Walker Global risk governance: Concept and practice using the example of climate change. International Risk Governance Council. – 2008.
7. Kroschwitz, J. I., & Howe-Grant, M. (Eds.). Kirk-Othmer Encyclopedia of Chemical Technology (5th ed.). John Wiley & Sons, 2012.
8. K.Gopalakrishnan, K.V.Remani и R.B.Nair Total quality management in chemical industries: A review. International Journal of Production Research, 57(13), 4253-4270. – 2019.
9. G.Jacoby Digitalization of the chemical industry: Impact on business models and processes. Chemical Engineering & Technology, 39(10), 1759-1765. – 2016.
10. F.J.Akulchaeva Improving the management system of chemical industry enterprises/Science and Innovation/ International Scientific Journal Volume 1 Issue 8.Ying Wang, Entao Wu, Xinhua Gao, Qiong Ding Global governance on chemical sound management and challenges in Asia-Pacific Region/ Global governance on chemical sound management and challenges in Asia-Pacific Region/ Procedia Environmental Sciences 31 (2016) 911 – 916.
11. Ying Wang, Entao Wu, Xinhua Gao, Qiong Ding Global governance on chemical sound management and challenges in Asia-Pacific Region/ Global governance on chemical sound management and challenges in Asia-Pacific Region/ Procedia Environmental Sciences 31 (2016) 911 – 916.

## RAQAMLI IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA UNING BUXGALTERIYA HISOBI TIZIMIGA TA'SIRI

**Annotatsiya.** Ushbu maqola raqamli texnologiyalarning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'sirini tahlil qiladi. Maqola raqamli texnologiyalar – jumladan, robotlashtirilgan jarayonlar avtomatizatsiyasi (RPA), sun'iy intellekt (AI), bulutli hisoblash, blokcheyn texnologiyasi va katta ma'lumotlar tahlilining buxgalteriya hisobi amaliyotlariga ijobiy va salbiy ta'sirlari borligini ko'rib chiqadi. Maqola raqamli texnologiyalarning buxgalteriya hisobiga ta'siri bo'yicha chuqur tushunchalar berish bilan birga, korxonalar uchun kelajakdagi strategiyalarni ishlab chiqishda foydali maslahatlar taqdim etadi.

**Kalit so'zлari:** Buxgalteriya hisobi, avtomatlashdirish, sun'iy intellekt, blokcheyn, katta ma'lumotlar tahlili, malaka oshirish, bulutli hisoblash, moliyaviy samaradorlik.

**Abstract.** This article analyzes the impact of digital technologies on the accounting system. The paper examines the positive and negative impacts of digital technologies – including robotic process automation (RPA), artificial intelligence (AI), cloud computing, blockchain technology and big data analytics – on accounting practices. The article provides insight into the impact of digital technologies on accounting, while providing useful advice for businesses to develop future strategies.

**Keywords:** Accounting, automation, artificial intelligence, blockchain, big data analysis, training, cloud computing, financial efficiency.

**Аннотация.** В данной статье анализируется влияние цифровых технологий на систему бухгалтерского учета. Рассматривается положительное и отрицательное влияние цифровых технологий, включая роботизированную автоматизацию процессов (RPA), искусственный интеллект (ИИ), облачные вычисления, технологию блокчейна и анализ больших данных, на практику бухгалтерского учета. В статье дается представление о влиянии цифровых технологий на бухгалтерский учет, а также даются полезные советы предприятиям по разработке будущих стратегий.

**Ключевые слова:** Бухгалтерский учет, автоматизация, искусственный интеллект, блокчейн, анализ больших данных, обучение, облачные вычисления, финансовая эффективность.

**Kirish.** Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi hozirgi zamонавиy dunyoning asosiy belgilaridan biriga aylanmoqda. Ushbu jarayon nafaqat texnologik innovatsiyalarni, balki iqtisodiy faoliyatning barcha sohalarida tub o'zgarishlarni ham keltirib chiqarmoqda. Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami respublika iqtisodiyotining barcha soha va tarmoqlarida kengayishi natijasida ijtimoiy-iqtisodiy alohalar tobora kengayib bormoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni joriy qilish masalalari bo'yicha o'tkazilgan videoselektorda "Raqamli iqtisodiyotsiz mamlakat iqatisodiyotining kelajagi yo'q" deb ta'kidlagan [1]. Raqamli iqtisodiyotning ahamiyati shundan iboratki, u korxonalar, tashkilotlar va butun davlatlar darajasida qaror qabul qilish jarayonlarini, moliyaviy hisobotlarni va boshqaruv tizimlarini qayta shakllantiradi. Buxgalteriya hisobi tizimi ham bu o'zgarishlardan chetda qolmaydi. Raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobini avtomatlashdirish, ma'lumotlarni tezkor ishslash va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa o'z navbatida moliyaviy shaffoflikni oshirish va korxonalar samaradorligini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot buxgalteriya hisobi sohasida yangi xavflar va muammolarni ham yuzaga keltiradi,

jumladan ma'lumotlar xavfsizligi va maxfiylikni ta'minlash masalalari. Shunday qilib, raqamli iqtisodiyotning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar, ushbu sohani kelajakda qanday rivojlanirish va unga yangi texnologik echimlarni qanday samarali joriy etish mumkinligi to'g'risida muhim bilimlar va ko'rsatmalar beradi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Maqolaning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyotning mohiyatini va uning buxgalteriya hisobi tizimiga qanday ta'siri ko'rsatayotganini tushuntirish orqali, raqamli texnologiyalarning bu sohadagi o'sish va rivojlanishdagi rolini aniqlashdan iboratdir. Bu jarayonda, raqamli iqtisodiyotning asosiy belgilari va xususiyatlarini o'rganish, buxgalteriya hisobining an'anaviy yondashuvlariga raqamli texnologiyalarning qanday yangiliklar kiritayotgani, shuningdek, bu o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan muammolar va ularning echimlari haqida chuqurroq tushuncha berish maqsad qilinadi. Maqola, shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning buxgalteriya hisobi sohasidagi kelajak istiqbollarini baholash va bu sohada amaliy qo'llanmalarni taklif qilish orqali o'quvchilarga qimmatli ma'lumotlar taqdim etishni ko'zda tutadi.

**Adabiyot sharhi.** Mavzuga oid adabiyotlar tahlili raqamli iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi tizimiga uning ta'sirini o'rganishda turli mualliflar tomonidan yoritilgan keng qamrovli yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Don Tapscott [4], Nicholas Negroponte [5] kabi avtorlar raqamli iqtisodiyotning asosiy tamoyillari va texnologik asoslarini belgilab berishgan, bu esa biznes modellari va ishlab chiqarish usullarining o'zgarishini ta'kidladi. Shuningdek, Erik Brynjolfsson va Andrew McAfee [6] raqamli texnologiyalarning iqtisodiyotga, xususan ish o'rinni va mehnat bozoriga ta'sirini chuqur tahlil qilganlar. Ular sun'iy intellekt va avtomatlashtirishning kelajakdag'i mehnat bozori uchun olib keladigan o'zgarishlarni yoritib berishgan. Raqamli iqtisodiyotning buxgalteriya hisobiga ta'siri bo'yicha esa, avtorlar jumladan, Daniel Susskind va Richard Susskind [7] kabi olimlar yangi texnologiyalarning buxgalteriya amaliyotiga qanday qilib integratsiyalashuvi va bu sohada yangi kompetensiyalarni talab qilinishi haqidagi fikrlarini bildirishgan. Ular raqamli texnologiyalar orqali ma'lumotlarni toplash, tahlil qilish va hisobot berish jarayonlarining tubdan o'zgarishini ta'kidlashadi. Bularning barchasi raqamli iqtisodiyot doirasida buxgalteriya hisobining rivojlanish yo'nalishlarini belgilab beradi va bu sohada yangi echimlar va yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi.

**Metodologiya.** Tadqiqotning metodologiyasi va yondashuvlari raqamli iqtisodiyotning mohiyati va uning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'sirini chuqur va ko'p qirrali o'rganishni ta'minlash uchun qator ilmiy usullarni o'z ichiga oladi. Ushbu tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi: adabiyotlarni tahlili, analiz va sintez, case studie usuli, prognozlash va strategik rejalashtirish.

**Natijalar va muhokama.** Raqamli iqtisodiyot, axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiy faoliyatning barcha sohalariga chuqur integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan yangi iqtisodiyot turi hisoblanadi. Ushbu iqtisodiyotning mohiyati raqamli texnologiyalar orqali ma'lumotlar yaratish, saqlash, qayta ishlash va tarqatishga asoslangan bo'lib, bu jarayonlar iqtisodiyotning turli jabhalarida yangi ishlab chiqarish, boshqaruv va savdo usullarini shakllantiradi. Raqamli iqtisodiyot o'zining asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi, jumladan global ulanish, yuqori darajadagi shaffoflik, tezkor ma'lumot almashinushi va ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi. Bu iqtisodiyot, shuningdek, innovatsiya va raqobatbardoshlikni rag'batlantiradi, chunki u korxonalar va tashkilotlar uchun yangi bozor imkoniyatlarini yaratadi va iste'molchilarga ko'proq qulaylik va tanlov imkoniyatlarini taqdim etadi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida yangi kasblar paydo bo'ladi va mehnat bozori doimiy o'zgarib turadi, bu esa jamiyat va iqtisodiyotning texnologik yutuqlardan samarali foydalanan qobiliyatini oshirishni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobiga keng ko'lamli yangiliklar va o'zgarishlar kiritdi, bu esa hisobot berish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tez va aniqroq qayta ishlash imkonini berdi. Sun'iy intellekt va robotlashtirilgan jarayonlar avtomatizatsiyasi (RPA) kabi texnologiyalar moliyaviy ma'lumotlarni toplash va tahlil qilishda inson xatosini kamaytirishga, shuningdek, buxgalteriya jarayonlarining samaradorligini oshirishga yordam

beradi. Blokcheyn texnologiyasi esa ma'lumotlarning shaffofligini va xavfsizligini ta'minlash orqali moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi. Katta ma'lumotlar (big data) tahlili va bulutli hisoblash esa buxgalteriya ma'lumotlarini saqlash va ulardan foydalanishning yangi usullarini taklif etadi, bu esa korxonalar uchun moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonini yanada asosli va ma'lumotga asoslangan qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar buxgalteriya sohasida yangi kasb-hunarlar va ish o'rinalarini yaratishga, hamda buxgalterlar uchun doimiy o'qish va malakasini oshirish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu o'zgarishlar buxgalteriya hisobi tizimining samaradorligini oshirish bilan birga, sohani yangi texnologik rivojlanishlar asosida qayta shakllantirishga majbur qilmoqda.

Buxgalteriya hisobi tizimining an'anaviy yondashuvlari, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasidan oldin ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan usullar va qoidalar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu yondashuvlar asosan qog'oz asosidagi hujjatlar, qo'lda hisob-kitoblar va moliyaviy ma'lumotlarni qayd etish uchun jismoniy daftarlardan foydalanishga tayanadi. An'anaviy buxgalteriya hisobi tizimining asosiy xususiyatlari quyida keltirilgan:

- ✓ Qo'lda ma'lumotlarni qayd etish. Buxgalterlar har bir moliyaviy tranzaksiyani qo'lda kiritishlari va moliyaviy hisobotlarni tayyorlash uchun jismoniy daftarlarni yuritishlari kerak bo'lgan.
- ✓ Hujjatlar arxivini saqlash. Barcha moliyaviy hujjatlar, shartnomalar va boshqa muhim qog'ozlar jismoniy shaklda saqlanadi, bu esa hujjatlarni saqlash uchun katta hajmdagi fizik makonni talab qiladi.
- ✓ Moliyaviy hisobotlarni qo'lda tuzish. Moliyaviy hisobotlar, masalan, foya va zarar hisobotlari, balanslar va moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotlar qo'lda tuziladi, bu jarayon vaqt talab qiladi va xato qilish ehtimolini oshiradi.
- ✓ Cheklangan tahlil imkoniyatlari. An'anaviy yondashuvda moliyaviy ma'lumotlar tahlili asosan buxgalterning tajribasi va mahoratiga bog'liq bo'lib, keng ko'lamli ma'lumotlar tahlili va tezkor qarorlar qabul qilish imkoniyatlari cheklangan.

An'anaviy buxgalteriya hisobi tizimining ushbu xususiyatlari, raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi va buxgalteriya hisobi tizimlarining avtomatlashtirilishi bilan bir qatorda, zamonaviy buxgalteriya amaliyotlarida sezilarli o'zgarishlarga olib keldi.

Raqamli texnologiyalardan oldin buxgalteriya hisobi amaliyotida yuzaga kelgan asosiy muammolar va cheklowlar, qo'lda hisob-kitoblarning ko'pligi, ma'lumotlarni qayd etishda xatoliklarning yuzaga kelishi, ma'lumotlarga kirishning cheklanganligi, moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va tahlil qilish jarayonlarining vaqt talab qiluvchanligi kabi omillar bilan bog'liq edi. Bularning barchasi buxgalteriya jarayonlarining samaradorligini pasaytiradi va moliyaviy qarorlar qabul qilishda kechikishlarga olib keladi. Shuningdek, jismoniy hujjatlar bilan ishslash va ularni saqlash katta hajmdagi arxivlar yaratadi, bu esa hujjatlarni topish va ulardan foydalanishni qiyinlashtiradi. Moliyaviy ma'lumotlar faqat muayyan joyda saqlanganda, buxgalterlar va boshqaruvchilar uchun zarur bo'lganda tezkor ma'lumot olish imkoniyatlari cheklangan bo'ladi. Bularning barchasi, o'z navbatida, korxonalar va tashkilotlar uchun moliyaviy ma'lumotlarni boshqarish va ular asosida strategik qarorlar qabul qilishni murakkablashtiradi. Raqamli texnologiyalarning joriy etilishi esa buxgalteriya hisobi amaliyotidagi ko'plab muammolar va cheklowlarni bartaraf etishga yordam berdi, jarayonlarni avtomatlashtirish va moliyaviy ma'lumotlarni samarali boshqarish imkoniyatini taqdim etdi.

Raqamli iqtisodiyotning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri keng ko'lamli va tubdan o'zgarishlar keltirib chiqardi. Bu o'zgarishlar, bir tomonidan, buxgalteriya amaliyotlarini yanada samarali, tez va aniqroq qilish imkonini berdi, boshqa tomonidan esa, buxgalteriya sohasidagi kasblar va malaka talablariga yangi talablar qo'ydi.

Birinchidan, raqamli texnologiyalar buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish imkonini berdi, bu esa takroriy va vaqt talab qiluvchi vazifalarni sezilarli darajada kamaytirdi. Masalan, sun'iy intellekt va robotlashtirilgan jarayonlar avtomatizatsiyasi (RPA) moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishslash, to'lovlar va soliq hisobotlarini avtomatik ravishda tayyorlash kabi vazifalarni osonlashtiradi.

Ikkinchidan, bulutli hisoblash va katta ma'lumotlar (big data) texnologiyalari moliyaviy ma'lumotlarni saqlash, ularga kirish va ularni tahlil qilish usullarini tubdan o'zgartirdi. Endi buxgalterlar va moliyaviy tahlilchilar har qanday joydan real vaqt rejimida moliyaviy ma'lumotlarga kirish imkoniyatiga ega bo'lishdi, bu esa qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi va ularning asoslanishini yaxshilaydi.

Uchinchidan, blokcheyn texnologiyasi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini va xavfsizligini oshirishda muhim rol o'ynadi. Blokcheyn yordamida amalga oshirilgan moliyaviy tranzaksiyalar izi qoldiriladi, bu esa firibgarlik va moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri buxgalteriya sohasidagi kadrlarning malaka va ko'nikmalariga yangi talablar qo'ydi. Endilikda buxgalterlardan raqamli texnologiyalarni, jumladan dasturiy ta'minotlarni, ma'lumotlar bazasini va sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalarini samarali qo'llay olish talab etiladi. Bu esa o'z navbatida, buxgalteriya ta'limi va malaka oshirish dasturlarining yangilanishini talab qiladi.

Natijada, raqamli iqtisodiyot buxgalteriya hisobi tizimini yangilashga, uning samaradorligini oshirishga va moliyaviy hisobotlar sifatini yaxshilashga yordam berdi, bu esa korxonalar va tashkilotlar uchun moliyaviy boshqaruvni takomillashtirish imkoniyatini yaratdi.

#### 1-jadval

#### Raqamli texnologiyalardan foydalanishning buxgalteriya hisobiga bo'lgan ijobiy va salbiy ta'sirlari<sup>1</sup>

| Ijobiy ta'sirlari  | Salbiy ta'sirlari   |
|--|---|
| Avtomatlashtirish orqali samaradorlikning oshishi.                   | Xavfsizlik muammolari.  |
| Ma'lumotlarning shaffofligi va ishonchliligi.                        | Professional malakalarning eskirishi.                               |
| Qaror qabul qilishda yuqori sifatlari ma'lumotlarning mavjudligi.    | Boshqaruv va nazoratning murakkablashuvi.                           |
| Moliyaviy operatsiyalarni global darajada amalga oshirish qulayligi. | Shaxsiy ma'lumotlar bilan bog'liq xavflar.                          |
| Xodimlarning ish yukini kamaytirish.                                 | Boshlang'ich investitsiya va texnik qo'llab-quvvatlash xarajatlari. |

Ushbu jadval raqamli texnologiyalarning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'sirini ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiladi. Jadvalda ko'rsatilganidek, raqamli texnologiyalarning ijobiy ta'sirlari orasida ish samaradorligining oshishi, ma'lumotlarning shaffofligi va ishonchliligi, qaror qabul qilishda yuqori sifatlari ma'lumotlarning mavjudligi, moliyaviy operatsiyalarni global darajada amalga oshirish qulayligi va xodimlarning ish yukini kamaytirish kabi omillar mavjud. Bu omillar raqamli texnologiyalar orqali buxgalteriya hisobi jarayonlarini optimallashtirish va samaradorligini oshirish imkonini beradi:

- ✓ Avtomatlashtirish orqali samaradorlikning oshishi. Raqamli texnologiyalar buxgalteriya jarayonlarini tezlashtiradi va inson xatosini kamaytiradi, bu esa ish samaradorligini oshiradi.
- ✓ Ma'lumotlarning shaffofligi va ishonchliligi. Raqamli hisoblar va blokcheyn texnologiyasi ma'lumotlarning shaffofligini ta'minlaydi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi.
- ✓ Moliyaviy operatsiyalarni global darajada amalga oshirish qulayligi. Bulutli hisoblash va elektron tijorat buxgalteriya hisobini xalqaro miqyosda amalga oshirishni soddallashtiradi.
- ✓ Qaror qabul qilishda yuqori sifatlari ma'lumotlarning mavjudligi. Katta ma'lumotlar tahlili va sun'iy intellekt qaror qabul qilish jarayonlarini yaxshilash uchun zarur bo'lgan aniq va vaqtli ma'lumotlarni ta'minlaydi.

<sup>1</sup> Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

- ✓ Xodimlarning ish yukini kamaytirish. Avtomatlashtirilgan hisobotlar va moliyaviy jarayonlar xodimlarning qo‘lda bajaradigan ishlarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Biroq, raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi bilan bog‘liq salbiy ta‘sirlar ham mavjud. Xavfsizlik muammolari, professional malakalarning eskirishi, boshqaruv va nazoratning murakkablashuvi, shaxsiy ma‘lumotlar bilan bog‘liq xavflar va boshlang‘ich investitsiya hamda texnik qo‘llab-quvvatlash xarajatlari kabi muammolar raqamli texnologiyalarni joriy etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin.

- ✓ Xavfsizlik muammolari. Ma‘lumotlarning elektron shaklda saqlanishi ularning noqonuniy foydalanish yoki hujumlar uchun ochiq bo‘lishi mumkinligini anglatadi.
- ✓ Professional malakalarning eskirishi. Raqamli texnologiyalarning tezkor rivojlanishi buxgalterlar uchun doimiy o‘qib, yangi ko‘nikmalarни egallash zaruratini yaratadi.
- ✓ Boshqaruv va nazoratning murakkablashuvi. Raqamli texnologiyalarning keng qo‘llanilishi buxgalteriya hisobini boshqarish va nazorat qilish tizimlarining murakkablashishiga olib keladi.
- ✓ Shaxsiy ma‘lumotlar bilan bog‘liq xavflar. Raqamli texnologiyalardan foydalanish shaxsiy va moliyaviy ma‘lumotlarning suiste‘mol qilinish xavfini oshiradi.
- ✓ Boshlang‘ich investitsiya va texnik qo‘llab-quvvatlash xarajatlari. Raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ich investitsiyalar va doimiy texnik qo‘llab-quvvatlash xarajatlari yuqori bo‘lishi mumkin.

Bu muammolar raqamli texnologiyalarning samarali boshqarilishini va xavfsizlik tizimlarining mustahkamlanishini talab qiladi.

Umuman olganda, raqamli texnologiyalarning buxgalteriya hisobi tizimiga ta‘siri ko‘p jihatdan ijobiydir, lekin bu o‘zgarishlar bilan bir qatorda kelib chiqadigan muammolarni hal qilish uchun korxonalar strategik yondashuvlarni ishlab chiqishlari va texnologik yangilanishlarga moslashuvchan bo‘lishlari zarur. Bu jarayonda texnologik yangiliklarni qabul qilish, xodimlarning malakasini oshirish va xavfsizlik choralar kabi masalalarga alohida e‘tibor berish muhimdir.

Raqamli texnologiyalar yordamida buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilishi, korxonalar va tashkilotlar uchun moliyaviy operatsiyalarni bajarish, hisobotlar tuzish va moliyaviy ma‘lumotlarni tahlil qilish jarayonlarini sezilarli darajada osonlashtiradi.

**Elektron hujjat aylanishi (EHA)** - bu hujjatlarni yaratish, qabul qilish, saqlash, ko‘rib chiqish, imzolash va boshqa zarur harakatlarni amalga oshirish jarayonlarini avtomatlashtirishga imkon beruvchi texnologiyadir. Elektron hujjat aylanishidan bitimlar tuzish (shu jumladan shartnomalar tuzish), hisob-kitoblarni, rasmiy va norasmiy yozishmalarni amalga oshirish hamda boshqa axborotni uzatishda foydalanish mumkin [3]. Bu jarayon raqamli shaklda amalga oshiriladi va qog‘oz hujjatlarining jismoniy shakllaridan foydalanishga hojat qoldirmaydi. EHA yordamida korxonalar va tashkilotlar o‘rtasida hujjatlar tezkor, xavfsiz va samarali tarzda almashinushi amalga oshiriladi. Elektron hujjat aylanishi tizimi, shuningdek, hujjatlarning nusxalari va versiyalarini avtomatik ravishda boshqarish, ular ustida bir vaqtning o‘zida bir nechta foydalanuvchilarning ishlashini ta‘minlash va hujjatlarning to‘liq elektron arxivini yaratish imkoniyatini beradi.O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni 14-moddasida operatsiyalar amalga oshirilganligini qayd etuvchi boshlang‘ich hisob hujjatlari va ularni o‘tkazishga doir farmoyishlar xo‘jalik operatsiyalarining buxgalteriya hisobi uchun asos bo‘ladi. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar tomonidan savdo va servis sohasida olinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqi bank korporativ plastik kartalaridan foydalangan holda to‘langanida to‘lov terminallarining cheklari ham boshlang‘ich hisob hujjatlari deb tan olinishi e‘tirof etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2003 yil 23 dekabrda 131-sun bilan tasdiqlangan “Buxgalteriya hisobida hujjatlar va hujjatlarni aylanishi to‘g‘risida”gi nizom O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni asosida ishlab chiqilgan va hujjatlarni tuzish, qabul qilish, saqlash va buxgalteriya hisobida aks ettirish, hamda hujjatlarni aylanishini amalga oshirish bo‘yicha yagona tartibni belgilaydi (O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004 yil 14 yanvarda 1297-sun bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan).

Yuqorida qayd etilgan Nizom O'zbekiston Respublikasining barcha hududlarida bir xilda amal qiladi va shu hujjatlar asosida ishlar tashkil qilinadi. EHA korporativ resurslarni rejalashtirish tizimlari (ERP), buxgalteriya dasturlari va boshqa biznes dasturlari bilan integratsiya qilinishi mumkin, bu esa biznes jarayonlarining barcha bosqichlarida ma'lumotlar almashinuvini optimallashtiradi va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtiradi. EHA tizimlarining joriy etilishi nafaqat ish jarayonlarini soddalashtiradi va tezlashtiradi, balki hujjatlar bilan bog'liq xatolarni kamaytirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash orqali qog'oz iste'molini kamaytirishga ham yordam beradi. Ko'plab korxonalar endilikda qog'oz hujjatlardan elektron hujjatlarga o'tishgan, bu esa fakturalarni, bank hisobotlarini va boshqa moliyaviy hujjatlarni tez va oson almashish imkonini beradi. Masalan, Xalqaro savdo kompaniyalari EHA tizimlaridan foydalanib, turli mamlakatlardagi hamkorlar bilan hujjatlarni tezkor tarzda almashadi, bu esa hisobot va to'lov jarayonlarini tezlashtiradi.

**Bulutli buxgalteriya dasturlari.** Bulutli buxgalteriya dasturlari zamonaviy korxonalar va tadbirkorlar uchun moliyaviy ma'lumotlarni boshqarishni ancha osonlashtiruvchi raqamli echimlardir. Ushbu dasturlar internet orqali ishlaydi va foydalanuvchilarga istalgan vaqtida, istalgan joydan moliyaviy hisobotlarga kirish imkoniyatini taqdim etadi. Bulutli buxgalteriya dasturlarining asosiy afzalliklari orasida ma'lumotlarning real vaqt rejimida yangilanishi, xavfsiz ma'lumotlar saqlash, avtomatlashtirilgan yangilanishlar va zaxira nuxxalarining mavjudligi kiradi. Bu dasturlar, shuningdek, soliq hisobotlarini tayyorlash, ish haqi hisob-kitoblari, debitor va kreditor qarzdorliklarini boshqarish kabi turli buxgalteriya vazifalarini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi. Bulutli buxgalteriya dasturlari korxonalar uchun moliyaviy jarayonlarni samarali boshqarish, xarajatlarini optimallashtirish va qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish imkoniyatini yaratadi. Ular, shuningdek, korxonalar o'rtaisdagi hamkorlikni kuchaytiradi, chunki buxgalterlar, menejerlar va boshqa manfaatdor shaxslar bir vaqtning o'zida bir xil ma'lumotlar bazasiga kirish va unda ishslash imkoniyatiga ega bo'ladi. Raqamli iqtisodiyot doirasida bulutli buxgalteriya dasturlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda, chunki ular biznesni boshqarishning zamonaviy talablariga javob beradi va korxonalar uchun raqobatbardosh ustunlik yaratadi. Bulutli asosdagi buxgalteriya dasturlari korxonalar uchun moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida kirish, ularni boshqarish va tahsil qilish imkoniyatini taqdim etadi. Bunday dasturlar yordamida buxgalterlar turli joylardan ishlay oladilar, bu esa mehnat unumdarligini oshiradi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

#### **Robotlashtirilgan jarayonlar avtomatizatsiyasi (RPA – Robotic Process Automation)**

– bu ish jarayonlarini avtomatlashtirish uchun dasturiy robotlar yoki "virtuallashgan ishchilar" dan foydalanishni nazarda tutuvchi texnologiya. RPA yordamida korxonalar o'zlarining ish jarayonlarini, ayniqsa, takrorlanuvchi, qoidalarga asoslangan va ko'p miqdorda bajariladigan vazifalarini tezkor, xatosiz va samarali tarzda bajarish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu texnologiya buxgalteriya, moliyaviy hisobot, mijozlar bilan ishslash, ma'lumotlarni kiritish kabi sohalarda keng qo'llaniladi.

RPAning asosiy afzalligi shundaki, u mavjud tizimlar bilan integratsiyalashishi mumkin, ya'ni yangi dasturiy ta'minotni joriy etish yoki mavjud tizimlarni o'zgartirish talab qilinmaydi. Bu esa avtomatlashtirishni tez va samarali amalga oshirishga imkon beradi. RPA dasturlari foydalanuvchining kompyuterda bajaradigan harakatlarini taqlid qiladi: ma'lumotlarni ko'chirish, fayllarni ochish, ma'lumotlarni kiritish, hisobotlarni tuzish va hokazo.

Robotlashtirilgan jarayonlar avtomatizatsiyasi korxonalarga quyidagi asosiy afzalliklarni taqdim etadi:

- ✓ Ish samaradorligini oshirish. RPA ish jarayonlarini tezlashtiradi va xodimlarni takroriy vazifalardan xalos qiladi, ularning diqqatini murakkabroq va ijodiyroq vazifalarga qaratish imkonini beradi.
- ✓ Xatolarni kamaytirish. Dasturiy robotlar xato qilmaydi, bu esa jarayonlarning aniqligini va ishonchligini oshiradi.
- ✓ Moliyaviy samaradorlik. Avtomatlashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, chunki takroriy ishlar uchun qo'shimcha xodimlarni yollash zaruratini bartaraf etadi.

- ✓ Tezkor ROI (investitsiyalarning qaytishi). RPA loyihalari nisbatan tez amalga oshiriladi va tezkor natijalar beradi, bu esa investitsiyalarning qaytishini tezlashtiradi.
- ✓ Moslashuvchanlik va kengaytirish imkoniyatlari. Korxonalar o‘zlarining ehtiyojlariga qarab, avtomatlashtiriladigan jarayonlar sonini osongina ko‘paytirishi yoki kamaytirishi mumkin.

Shu bilan birga, RPAning muvaffaqiyatli joriy etilishi aniq jarayonlarni tanlash, xodimlarni o‘qitish va texnologiyani to‘g‘ri boshqarish kabi omillarga bog‘liq. Raqamli iqtisodiyot doirasida RPA texnologiyasining ahamiyati va qo‘llanilishi kengayib bormoqda, bu esa korxonalar uchun raqobatbardoshlikni oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda.

RPA texnologiyasi yordamida takroriy buxgalteriya vazifalari, masalan, to‘lovlar qaydini yuritish, fakturalarni qayta ishslash va moliyaviy hisobotlarni tuzish avtomatlashtiriladi. Masalan, moliyaviy xizmatlar sohasida RPA dasturlari moliyaviy tranzaksiyalarni avtomatik ravishda qayd etish va ularni tegishli hisobvaraq kitoblarga kiritish imkonini beradi.

**Sun‘iy intellekt (AI) va katta ma‘lumotlar tahlili (big data analysis)** zamonaviy texnologiyalarning ikki muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular biznes, ilm-fan, sog‘liqni saqlash, moliya va ko‘plab boshqa sohalarda keng qo‘llaniladi. Ushbu texnologiyalar ma‘lumotlarni qayta ishslash, tahlil qilish va ular asosida qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini tubdan o‘zgartirmoqda.

Sun‘iy intellekt dasturlari o‘rganish, muammo echimini topish, nutqni tanish, tasvirlarni qayta ishslash va tabiiy tilni qayta ishslash kabi murakkab vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan. AI texnologiyalari mashinalarga inson kabi fikrlash va o‘rganish qobiliyatini beradi, bu esa ularni turli xil amaliyotlarda qo‘llash imkonini yaratadi. Masalan, AI asosidagi tizimlar moliyaviy firibgarlikni aniqlash, mijozlar xulq-atvorini tahlil qilish, mahsulotlarni tavsiya etish va xizmatlar sifatini yaxshilashda qo‘llaniladi.

Katta ma‘lumotlar tahlili esa, katta hajmdagi, turli xil strukturali va strukturasiz ma‘lumotlarni qayta ishslash va ularni ma‘noli axborotga aylantirish jarayonidir. Bu ma‘lumotlar tahlili korxonalarga bozor tendentsiyalarini aniqlash, mijozlar ehtiyojlarini tushunish, samaradorlikni oshirish va yangi biznes imkoniyatlarini aniqlashda yordam beradi. Katta ma‘lumotlar tahlili shuningdek, moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish, operatsion samaradorlikni baholash va strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyatga ega.

Sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar tahlilining integratsiyasi korxonalarga murakkab ma‘lumotlar to‘plamlaridan chuqur tushunchalar olish va ular asosida yanada aniq va samarali qarorlar qabul qilish imkonini beradi. Bu texnologiyalar, shuningdek, avtomatlashtirish darajasini oshiradi va ish jarayonlarini yanada samarali boshqarishga yordam beradi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida, sun‘iy intellekt va katta ma‘lumotlar tahlilining ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda, bu esa korxonalar uchun raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Sun‘iy intellekt (AI) va katta ma‘lumotlar tahlili yordamida korxonalar moliyaviy ma‘lumotlarni chuqur tahlil qilish va buxgalteriya hisobotlarida aniqlikni ta‘minlash imkoniga ega. Masalan, AI asosidagi tahlil vositalari firmaning moliyaviy holatiga oid tendentsiyalarni aniqlash, xavflarni baholash va kelajakdagagi moliyaviy natijalarni prognoz qilishda qo‘llaniladi.

**Blokcheyn texnologiyasi** – bu ma‘lumotlarni bloklar shaklida zanjirga o‘xshash tarzda saqlaydigan raqamli daftar texnologiyasıdir. Har bir blok ma‘lum bir miqdordagi ma‘lumotlarni o‘z ichiga oladi va oldingi blok bilan kriptografik usulda bog‘lanadi, bu esa ma‘lumotlar zanjirining uzluksizligini va o‘zgartirib bo‘lmashligini ta‘minlaydi. Blokcheynning asosiy xususiyatlari shaffoflik, taqsimlangan arxitektura va o‘zgartirib bo‘lmashlikdir, bu unga moliyaviy operatsiyalar, shartnomalar va boshqa ko‘plab sohalarda qo‘llanilish imkonini beradi.

Blokcheyn texnologiyasi dastlab kriptovalyutalar, xususan Bitcoin uchun asos sifatida ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, uning qo‘llanilish doirasi kengayib, molivaviy xizmatlar, ta‘minot zanjiri boshqaruv, intellektual mulk huquqlarini boshqarish, shaxsiy ma‘lumotlarning xavfsizligi va hatto ovoz berish tizimlari kabi sohalarni qamrab olgan. Blokcheynning taqsimlangan tuzilishi tufayli, ma‘lumotlarga faqatgina ruxsat etilgan foydalanuvchilar kirish huquqiga ega bo‘ladi, bu esa ma‘lumotlar xavfsizligini oshiradi va ulardan noqonuniy foydalanishni qiyinlashtiradi.

Blokcheyn texnologiyasining moliyaviy sohadagi qo'llanilishi, masalan, moliyaviy hisobotlarni tuzish, aktivlarni kuzatib borish, to'lovlar va pul o'tkazmalari kabi jarayonlarni soddallashtirishi va tezlashtirishi mumkin. Shuningdek, bu texnologiya shaffoflikni ta'minlaydi va ishonchni oshiradi, chunki har bir tranzaksiya blokcheyn tizimida doimiy ravishda qayd etiladi va uni o'zgartirib bo'lmaydi.

Blokcheynning yana bir muhim qo'llanilishi – bu smart shartnomalar. Smart shartnomalar – bu shartnoma shartlari bajarilganda avtomatik ravishda amalga oshiriladigan dasturiy kodlar. Bu jarayon shartnoma shartlarining bajarilishini kafolatlaydi va ortiqcha byurokratiyani kamaytiradi.

Umuman olganda, blokcheyn texnologiyasi ishonch, xavfsizlik va samaradorlikni oshirish orqali turli sohalarda yangi imkoniyatlar ochib bermoqda. Uning qo'llanilishi kelajakda yanada kengayishi va yangi innovatsion echimlarni yuzaga keltirishi kutilmoqda.

Blokcheyn texnologiyasi moliyaviy operatsiyalarning shaffofligini va xavfsizligini oshirishda muhim rol o'yndaydi. Masalan, kripto valyutalar va smart shartnomalar orqali amalga oshiriladigan to'lovlarни qayd etishda blokcheyn texnologiyasidan foydalaniadi, bu esa moliyaviy hisobotlarning ishonchiligini ta'minlaydi va aldovga yo'l qo'yaydi.

Buxgalter kasbinining rivojlanishi va buxgalterlarning malakasini oshirish zarurati, raqamli iqtisodiyot doirasida tobora muhimroq bo'lib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar va avtomatlashtirish vositalarining keng qo'llanilishi buxgalteriya sohasida yangi talablar va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Buxgalterlar endilikda faqatgina moliyaviy hisobotlar va soliqlar bilan ishlashdan tashqari, raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish, ma'lumotlar tahlili va strategik qaror qabul qilish jarayonlarida faol ishtiroy etishlari kerak.

*Texnologik ko'nikmalar.* Raqamli asrlarda buxgalterlar uchun dasturiy ta'minotlar, bulutli hisoblash xizmatlari, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi tahlil vositalaridan foydalana olish ko'nikmalar zarur. Bu ko'nikmalar moliyaviy ma'lumotlarni tezroq va aniqroq qayta ishslash, shuningdek, moliyaviy hisobotlarni tuzishda samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

*Tahliliy ko'nikmalar.* Katta ma'lumotlar (big data) va ilg'or ma'lumotlar tahlili texnologiyalari buxgalterlardan moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish va ular asosida strategik qarorlar qabul qilish qobiliyatini talab qiladi. Buxgalterlar uchun ma'lumotlarni tahlil qilish, trendlarni aniqlash va kelajakdagи moliyaviy ko'rsatkichlarni prognoz qilish ko'nikmalarini rivojlanirish muhim ahamiyatga ega.

*Muvofiqlik va riskni boshqarish.* Raqamli texnologiyalar va yangi qonunchilik talablari moliyaviy hisobotlarning muvofiqligini ta'minlash va tashkilotning moliyaviy xavflarini boshqarishda yangi yondashuvlarni talab qiladi. Buxgalterlar uchun yangi qonunchilik o'zgarishlarini kuzatib borish va ularni amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, xavfni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish zarur.

*Doimiy ta'lim va malaka oshirish.* Texnologiyalar va buxgalteriya amaliyotlari doimiy o'zgarib turishi sababli, buxgalterlar uchun doimiy ta'lim va malaka oshirish zarurati mavjud. Bu, professional rivojlanish dasturlari, seminarlar, vebinarlar va sertifikatlash dasturlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalter kasbining rivojlanishi buxgalterlardan yangi texnologiyalar bilan ishslash, moliyaviy ma'lumotlarni tahlil qilish va qaror qabul qilishda yanada faol ishtiroy etishni talab qiladi. Shu bilan birga, bu o'zgarishlar buxgalterlarga yangi imkoniyatlar yaratib, kasbning qadr-qimmatini oshiradi va ularning faoliyat doirasini kengaytiradi.

**Xulosa.** Raqamli iqtisodiyotning buxgalteriya hisobi tizimiga ta'siri bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar va kuzatuvlар quyidagi asosiy xulosalarga olib keladi:

1. Raqamli texnologiyalar, jumladan robotlashtirilgan jarayonlar avtomatizatsiyasi (RPA), sun'iy intellekt (AI) va bulutli hisoblash yordamida buxgalteriya hisobi jarayonlarining avtomatlashtirilishi moliyaviy ma'lumotlarni qayta ishslash samaradorligini sezilarli darajada oshirdi. Bu texnologiyalar takroriy va vaqt talab qiluvchi vazifalarni avtomatlashtirish orqali buxgalterlarga strategikroq va tahliliy vazifalarga ko'proq e'tibor qaratish imkonini beradi.

2. Blokcheyn texnologiyasi kabi yangi texnologiyalar moliyaviy operatsiyalar va hisobotlarning xavfsizligini va shaffofligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu texnologiyalar moliyaviy ma‘lumotlarning izchilligini ta‘minlaydi va firibgarlik hamda moliyaviy qonunbuzarliklarning oldini olish imkonini beradi.

- 50.** Dearden, L., Reed, H., & Reenan, J.V. (2006). "The Impact of Training and Productivity and Wages: Evidence from British Panel Data," *Oxford Bulletin of Economics and Statistics*, Vol. 68(4), pp. 397- 421
- 51.** Konings, J., & Vanormelingen, S. (2010). "The Impact of Training on Productivity and Wages: Firm Level Evidence," IZA Discussion Paper 4731, Institute for the study of Labour (IZA), Bonn, [Online]. Available at: <http://ftp.iza.org/dp4731.pdf>
- 52.** Wright, P. & Geroy, D.G. (2001), "Changing the Mindset: The training myth and the need for world-class performance". *International Journal of Human Resource Management*, Vol. 12 (4), pp. 586-600.
- 53.** Nilsen, J. H. (2002). "Trade Credit and the Bank Lending Channel", *Journal of Money, Credit and Banking*, Blackwell Publishing, Vol. 34(1), pp. 226-253.

## TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASH OMILLARI VA KO'RSATKICHLARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqola ta'lism xizmatlari bozorida oliy ta'lism muassasalari raqobatbardoshligining ahamiyati, raqobatbardoshlikni shakllantirish hususiyatlari va shart-sharoitlari hamda omillari, oliy ta'lism muassasalarida raqobatbardoshlikni oshirish ko'rsatkichlari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lism, ta'lism xizmatlari, raqobatbardoshlik, innovatsion korporativ xamkorlik, omillar, ko'rsatkichlar va tamoyillar.

**Kirish.** Bugungi zamonaviy jamiyatda inson faoliyatining eng keng sohalaridan biri-bu ta'lism sohasi xisoblanadi. Shuningdek, bugungi kunda ushu soha inson kapitalini shakllantirishning asosiy omillaridan biriga aylanib, mintaqalar va mamlakatlar milliy madaniyatini saqlashga, ta'lism sohasini rivojlantirishga, aholi daromadlari, turmush darajasi va sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Mamlakatimizda ta'lism sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, ta'lism sohasida raqobat muhitini shakllantirish, shuningdek, chet el investitsiyalarni jalb etish, hamda jahonning etakchi ilmiy-ta'lism muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish borasidagi ishlar jadal sur'atlar bilan olib borilmoqda.

Bugungi kunda ta'lism xizmatlari bozori ijtimoiy-iqtisodiy tizimning iste'mol bozoridagi murakkab bo'lган o'zaro bog'langan barcha elementlaridan tashkil topgan. Mazkur tizimni bosh generatori bo'lib, shubhasiz, mehnat bozorida o'ziga xos tovar sifatida chiquvchi malakali professional kadrlar tayyorlashdagi jamiyatning ehtiyoji hisoblanadi.


Hozirgi vaqtida oliy ta'lism faoliyatidan ilmiy-texnik va innovatsiyalar sohasida natija sifatida yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lish qobiliyati talab qilinmoqda. Bu esa oliy ta'lism tizimida faoliyat jarayonining sifatini oshirishni tahlil etish, iqtisodiy, moliyaviy va boshqaruv jarayoni muammolarini aniqlash, endogen va ekzogen omillarning ta'sirining o'zgarishi sharoitida muayyan maqsadlarga erishish qobiliyatini baholash muhim ahamiyatga ega zarurat hisoblanadi. Bu vazifalarni hal etishda ta'lism xizmatlari bozorida oliy ta'lism muassasalari raqobatbardoshligini oshirish omillarini aniqlashtirish, raqobatbardoshligini baholash uslubiyatini takomillashtirish, ta'lism, fan va ishlab chiqarish integratsiyasini mustahkamlash va ta'lism xizmatlari sifatini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomilashtirish va samarali mexanizmlarini takomillashtirish yo'nalishidagi tadqiqotlar ko'lmini kengaytirish kabi masalalar dolzarb bo'lib hisoblanmoqda.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ta'lism xizmatlari bozorida oliy ta'lism muassasalari raqobatbardoshligini oshirish masalalari iqtisodiy adabiyotlarda kam o'rganilgan. Xususan, G. Axunova [1], V.S.Bajenova [2], M.Q.Pardayev [3], N.SH.Vatolkina [4], M.A.Lukashenko [5], L.V.Zaxarova [6] kabi olimlar ta'lism xizmatlari, oliy ta'lism tizimiga bag'ishlab darslik, o'quv qo'llanmalar va boshqa o'quv va ilmiy adabiyotlarni yozganlar. Oliy ta'lism muassasalari raqobatbardoshligini shakllantirishning turli jihatlari D.A.Bonchukova, Ye.M.Beliy, Ye.A.Dergacheva, T.K.Ekshikayev, Ye.N.Zaxarova, L.A.Korchagova, V.A.Lazarev, R.A.Fatxutdinov[7] va boshqa olimlarning asarlarda ko'rib chiqilgan bo'lib, bunda oliy ta'lism muassasalarida raqobatbardoshlikni oshirish muammolari atroflicha tadqiq qilingan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonda iqtisodiy tizimlar va nisbatlarni o'rganishga dialektik va tizimli yondashuv, qiyosiy va solishtirma tahlil, statistik yondashuv, guuhlash usullari qo'llanilgan.

### Tahlil va natijalar.

Ta'lif xizmatlari bozorida OTMlari raqobatbardoshligini shakllantirish muayyan omillar bilan belgilanadi, ular ta'lif xizmatlari bozori ishtirokchilarining o'zaro munosbatlarida namoyon bo'ladi.



**1-rasm. OTMlari raqobatbardoshligiga faoliyat ko'rinishlari bo'yicha ta'sir etuvchi omillar<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini shakllantirishning turli jihatlari D.A.Bonchukova, Ye.M.Beliy, Ye.A.Dergacheva, T.K.Ekshikeyev, Ye.N.Zaxarova, L.A.Korchagova, V.A.Lazarev, R.A.Fatxutdinov[7] va boshqa olimlarning asarlarda ko'rib chiqilgan bo'lib, bunda oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardoshlikni oshirish muammolari atroficha tadqiq qilingan. Mazkur mualliflarning tadqiqotlari asosida, biz, oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardoshlikni shakllanishi, uni oshirish omillari tasnifini ishlab chiqdik (1-rasmda).

1-rasmda keltirilgan tasnif ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirish omillarining ta'sir etish darajalari va yo'nalishlari bo'yicha guruhладик.

Qamrab olish ko'lamiga ko'ra, biz, tashqi va ichki omillar guruhlarini tasniflaymiz.

Tashqi omillar – bu ta'lim muassasalariga bog'liq bo'lmagan siyosiy, tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar va tendensiyalar orqali namoyon bo'ladi. Ularning manbai jamoat aloqalarini subyektlari hisoblanadi.

U yoki bu darajadagi boshqaruv jarayonlari samaradorligi, resurslardan samarali foydalanish hamda OTMlarning samaradorligi ichki omillar ta'sirini ifodalab, uning o'ziga xosligini ifodalaydi. OTMlarning muayyan ko'rinishdagi faoliyatini aniqlash raqobatdoshlikning o'ziga xos omillarini ajratishga imkon beradi. Xususan, ta'lim jarayoni doirasida muassasaning raqobatbardoshligiga ta'lim texnologiyalarining sifati va innovatsionligi, akademik faollik darajasi kabi omillar ta'sir qiladi[8]. Omillarni guruhlash belgisi sifatida ilmiy-tadqiqot faoliyati ommaviy faollik darajasi, grant faoliyati hamda tayanch doktorantura va doktorantura kabilarni rivojlanishiga ta'sirini baholashni nazarda tutadi.

Raqobatbardoshlikka marketing faoliyati doirasida shunday omillar ta'sir ko'rsatadi, bularga marketing vositalarining samaradorligi va innovatsionligi, brendlarni qo'llab-quvvatlash sifati, ta'lim dasturlari assortimenti va ixtisoslashgan kadrlarni tayyorlash darajasi kabilar kiradi.

Investitsiya, tijorat, moliyaviy faoliyat infratuzilmani rivojlantirish uchun mablag'larni jalb qilish, moliyalashtirish manbalarini shakllantirish, asosiy faoliyatga yo'naltirilgan xarajatlarni realizatsiya qilish, buxgalteriya va boshqaruv hisobi tizimining xususiyatlari, audit tizimi xususiyatlari va samaradorligini oshirishga mablag' jalb qilishni nazarda tutadi.

Texnik va texnologik omillar guruhiya infratuzilmaning sifati va uning ta'lim dasturlarini amalga oshirish talablariga javob berish qobiliyati ta'sir qiladi.

Ta'lim xizmatlari bozoriga oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligining innovatsion omillar ta'siri o'quv jarayonini tashkil etishda innovatsion yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash, axborot tizimlaridan foydalanish, zamonaviy ishlab chiqarish bilan o'zaro aloqadorligi orqali shakllandi. Oliy ta'lim tizimiga xalqaro omillarning ta'siri xalqaro darajadagi ta'lim xizmatlari bozori kon'yunkturasi, iqtisodiy, ilmiy va madaniy almashinuv darajasi, xalqaro ta'limdagи integratsiya darajasi va xalqaro reytinglardagi o'rni orqali belgilanadi.

Biz, ta'lim xizmatlari bozorida OTMlari raqobatbardoshligiga ta'sir etuvchi omillarning tasnifiy belgilari bo'yicha quyidagi guruhlarga ajratdik:

### I. Ta'sir etish davri bo'yicha:

1.1. Doimiy ta'sir etuvchi omillar: milliy ta'lim xizmatlari bozori kon'yunkturasi; hududiy ta'lim xizmatlari bozori kon'yunkturasi; ilmiy-tadqiqot salohiyati; o'quv faoliyati salohiyati; marketing salohiyati; OTMlarning iqtisodiy salohiyati va tijorat samaradorligi; kadrlar salohiyati; infratuzilmaning rivojlanganlik darajasi; fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasi salohiyati; boshqarish salohiyati va h.k.

1.2. Davriy ta'sir etuvchi omillar: ta'lim tizimini me'yoriy-huquqiy tartibga solish; moliyaviy faoliyatni me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish; ta'sischnining qarori bo'yicha chora-tadbirlarni nazorat qilish; ta'lim faoliyatini litsenziyalash va akkreditatsiyalash; buxgalteriya va boshqaruv hisobi samaradorligi va h.k.

1.3. Bir martalik ta'sir etuvchi omillar: manfaatdor tomonlarning bayonotlariga javob berish; shartnomaviy jarayonlardagi o'zaro munosabatlar. Bir martalik omillar bir marta yoki o'ta tartibsiz hamda uzoq vaqt oralig'ida shakllanadi.

### II. Ta'sir qilish ko'lami bo'yicha:

2.1. Strategik ta'sirga ega omillar: iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy, innovatsion, texnologik va boshqalar.

2.2. Taktik ta'sirga ega omillar: ta'biiy muhitning holati; fan va ta'limning rivojlanish darajasi; iqtisodiyotning zamonaviy soha va tarmoqlarini rivojlanish darajasi; ijtimoiy rivojlanish darajasi; bozor infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlari; yalpi ichki mahsulot hajmida ilmiytadqiqotlarga qilinadigan xarajatlarning ulushi; ijtimoiy himoyalash tizimining rivojlanish darajasi va h.k.

2.3. Operativ ta'sirga ega omillar: malakali boshqaruv; raqobat muhitining holati; resurs ta'minotining mavjudligi; kontakdagи auditoriyalar bilan kommunikatsiya tizimining mavjudligi.

Ta'sir qilish ko'lami bo'yicha ta'lim xizmatlari bozorida OTMlari raqobatbardoshligining strategik omillari – odatda jamiyatdagi siyosiy o'zgarishlar, ijtimoiy-madaniy aloqalarning o'ziga xos xususiyatlari, iqtisodiy munosabatlarning rivojlanish darajasi, milliy ta'lim tizimining rivojlanish darajasi, texnologik yangiliklarni amalga oshirish darajasi va yo'nalishini belgilab beradi. Jamoat institutlari rivojlanishining nisbatan past darajasi, texnik-texnologik qoloqlik va milliy iqtisodiyot samaradorligining etarli darajada emasligi innovatsiyalarni joriy etish hamda ta'lim jarayonlari sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday omillar guruhi strategik xususiyatga ega omillar sifatida ifodalanadi.

Ta'lim xizmatlari bozorida OTMlarining raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi taktik tavsifga ega omillar bozor infratuzilmasining rivojlanish xususiyatlari, fan va ta'limning rivojlanish darajasi va boshqa bir qator omillar bilan bog'liqdir.

Raqobatbardoshlikning operativ omillari muayyan hududda, muayyan bir ta'lim muassasasi doirasida yaqin kelajakda qisqa vaqt ichida ahmiyatlari bo'lмаган ta'sirining mavjudligini ifodalaydi. Ushbu omillarga raqobat munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, resurs ta'minoti, kontakdagи auditoriyalar bilan kommunikatsiya tizimining mavjudligi kabilar kiradi.

### **III. Qamrab olish ko'lami bo'yicha:**

3.1. Ta'sir etuvchi tashqi omillar: milliy bozor kon'yunkturasi; milliy iqtisodiyot tarkibi va rivojlanish darajasi; siyosiy tizimning barqarorligi; milliy reytinlardagi o'rni; huquqiy munosabatlar darajasi; aholi turmush sifati darajasi; ta'limning rivojlanish darajasi; aholi soni va tarkibining dinamikasi.

3.2. Ta'sir etuvchi ichki omillar: kadrlar siyosatining maqsad va xususiyatlari; boshqaruv tizimining xususiyatlari; resurslardan foydalanish darajasi; tijorat faoliyati xususiyatlari, ishlab chiqarish tarkibi va ixtisoslashuvi va h.k.

**IV. Qo'llash sohasi bo'yicha.** Ta'lim xizmatlari bozoriga OTMlarining raqobatbardoshligi omillari ta'sirining o'ziga xosligi ularni qo'llash sohasiga qarab umumiy va o'ziga xos omillarni ajratib ko'rsatish imkonini beradi.

4.1. Umumiy omillar: boshqaruv tizimi samaradorligi; tijorat faoliyati samaradorligi; moddiy-texnik bazadan foydalanish samaradorligi va h.k. Umumiy omillar – bu muassasa ko'lamiga qarab amal qiladigan omillar guruhidir. Ularning ta'siri ta'lim muassasalariga ham, iqtisodiyotning boshqa sohalaridagi tadbirkorlik subyektlarida ham mavjud.

4.2. Maxsus omillar: Ushbu omillar faqat amaliy tavsifga ega bo'lib, ularning ta'siri ta'lim muassasalarini faoliyatining xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu omillarga: ilmiy daraja va unvonga ega ilmiy-pedagogik xodimlar ulushi; doktorantura faoliyati samaradorligi; o'quv jarayonini tashkil etish samaradorligi; nashr faolligi darajasi kabilar kiradi.

### **V. Moliyalashtirish tavsifiga ko'ra:**

5.1. Davlat tomonidan moliyalashtirish: belgilangan me'yor asosida ta'lim faoliyatini byudjetdan moliyalashtirish; davlat subsidiyalari; mulkiy majmua rivojlanishiga subvensiyalar va h.k.

5.2. Xususiy mablag'lar hisobga moliyalashtirish: biznes tomonidan investitsiyalash; uy xo'jaliklari mablag'ları; xorijiy agentlar tomonidan investitsiyalash; turli xil xususiy jamg'armalar orqali moliyalashtirish va h.k.

Yuqoridagilarga asoslansak, OTMlarini moliyalashtirish xususiyati ikki manbaidan biriga qarab omillarni guruhlash imkonini beradi. Birinchidan, davlat tomonidan beriladigan subsidiyalarni nazarda tutadigan davlat tomonidan moliyalashtirish, ta'lim faoliyati uchun aholi jon boshiga byudjet mablag'ları va mulkiy kompleksni rivojlantirish uchun subvensiyalar[8].

Ikkinchidan, xususiy mablag'lar – bu uy xo'jaliklari investitsiyalari, biznes investitsiyalari va xorijiy investitsiyalarga bog'liq. Ushbu manbalar hisobiga moliyalashtirishning mohiyati, tarkibi va miqdori oly ta'lim muassasalarini ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatdoshlik darajasini belgilaydi.

**VI. Ta'sir xususiyatiga ko'ra:** Ta'sir etish xususiyati bo'yicha raqobatdoshlik bevosita va bilvosita omillarini ajratib ko'rsatish mumkin.

6.1. Bevosita omillar ta'lim xizmatlari bozorida (raqobat muhiti, inson resurslari, me'yoriy-huquqiy baza) OTMlarning raqobatdoshligiga bevosita ta'sir qiladi[8]. Bevosita omillar ta'lim tizimida me'yoriy-huquqiy muhit, raqobat muhiti, mehnat resurslarini jalg qilish imkoniyatlari, kontragentlar bilan o'zaro munosabatlar, iste'molchilarining qanoatlanganlik darajasi va h.k.

6.2. Bilvosita omillarning ta'siri bilvositadir. Bularga iqtisodiy kon'yunktura, ijtimoiy-madaniy omillar, ilmiy-texnik taraqqiyot, siyosiy omillar kabilar kiradi.

Ta'lim faoliyatining o'ziga xosligi nafaqat xususiyatli omillarning ta'siri, balki ta'lim dasturlarini realizatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari va ta'lim xizmatlari bozori ishtirokchilarining o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi.

Bizning fikrimizcha, o'z maqsadlari, vazifalari va funksiyalarini turli xil usullar va vositalar asosida realizatsiya qila turib, OTMlari bilan mijozlarning ta'lim xizmatlari bozorida OTMlari raqobatbardoshligini shakllanish mexanizmi ularning raqobatbardosh ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi.

Bunda davlat, uy xo'jaliklari va talabalar, biznes tuzilmalari va jamoat tashkilotlari oly ta'lim xizmatlari bozorining ishtirokchilari bo'lib, tashqi muhit omilini namoyon etadi.

Ta'lim muassasasining ichki muhiti oly ta'limning ta'lim xizmatini o'zaro ta'sir natijasi hisoblangan jami funksiyalari, usullari va vositalari bilan tavsiflanadi.

Ta'lim xizmatlari bozorida OTMlarning raqobatbardoshligini shakllantirish mexanizmining tizimli tahlili ushbu elementlarni izchil o'rganishni nazarda tutadi[8].

Dissertatsiya ishining 1.1-paragrafida ko'rib chiqilgan ta'lim xizmatlari mijozlari bilan o'zaro munosabati bo'yicha, vositalarini qo'llash bo'yicha xususiyatlarini tadqiq etamiz:

#### 1. Davlat:

- qabulning nazorat raqamlari (ta'lim muassasalarini moliyalashtirish hajmi bilan o'zaro bog'liqligi). Davlat, ijro etuvchi hokimiyatning vakolatli organlari orqali ta'lim siyosatini amalgalashirish vositasida milliy iqtisodiyot ehtiyojlari, mehnat bozori kon'yunkturasi va oly ta'lim muassasalarining samaradorligi darajasiga muvofiq kadrlar tayyorlash va mutaxassisliklar bo'yicha qabul raqamlarini belgilaydi hamda faoliyati va ularning raqobatbardoshligi uchun oldindan shart-sharoitlarni yaratadi va tartibga soladi[8];

- davlat milliy ta'lim tizimining raqobatbardoshligini oshirishni asosiy maqsad qilib, xalqaro miqyosda raqobatbardoshlikka erishish yoki uning darajasini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuuni amalgalashirish uchun etakchi OTMlarni jalg qiladi. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasida oly ta'limni tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oly ta'lim muassasalarining flagmaniga aylantirish hamda respublikadagi kamida 10 ta oly ta'lim muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Nigher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1000 ta o'rindagi oly ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oly ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish vazifasi belgilab berilgan" [8];

- innovatsion rivojlanish dasturlarini davlat tomonidan moliyalashtirish. Davlatning byudjet mablag'lari hisobiga mahalliy ta'lim tizimini va innovatsion vektorini shakllantiradi hamda etakchi ta'lim markazlarini qo'llab-quvvatlaydi;

- ta'lim tizimini me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solish. Ma'muriy ta'sir ko'rsatishning bevosita vositasi sifatida u ta'lim xizmatlari sifatini qo'llab-quvvatlash, oly ta'limning yagona standartlarini joriy etish, milliy iqtisodiyotning yuqori malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadini ko'zlaydi[8];


– oliy ta’lim muassasalari faoliyatini monitoring qilish. Davlat oliy ta’lim tizimi holatini kuzatib boradi va uni milliy iqtisodiyot ehtiyojlariga mos ravishda optimallashtirish uchun zarur choralarni ko‘radi.

2. Biznes tuzilmalari – ish bilan ta’minlash va ta’lim muhitida biznesga ta’sir o’tkazishning asosiy vositasi sifatida bitiruvchilarining kasbiy kompetensiyasi mazmuni va darajasiga talablarni shakllantiradi. Bitiruvchilarni tanlash va keyinchalik ish bilan ta’minlash, shuningdek ularning kasbiy kompetensiyasi mazmuni va darajasiga talablarni shakllantirish orqali tadbirkorlik muhiti bozorni ma’lum bir kasb va malaka mutaxassislariga, ularning raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatadigan oliy o‘quv yurtlari afzal ko‘rgan ta’lim muassasalariga bo‘lgan ehtiyojlari to‘g‘risida xabardor qiladi[8].

3. Uy xo‘jaliklari va talabalar – ta’lim xizmatlariga talab va o‘zlashtirilgan kasbiy kompetensiyalarning mazmuni va darajasiga qo‘yiladigan talabi (ta’lim muassasasining kelgusidagi kasblarning afzallikkleri, boshqa hududda o‘qish imkoniyatlari va moddiy holati).

4. Davlat muassasalari – oliy ta’lim tizimining jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligini ta’minlash maqsadida uning monitoringini olib borish. Monitoring natijalari ma’lum bir ta’lim muassasasining raqobatbardoshligini shakllantirishga ta’sir ko‘rsatadigan tashkilot (korxona)ning samaradorligini, bozor ishtirokchilarini bilan o‘zaro aloqlar jarayonida u yuboradigan signallarni bilvosita baholashga imkon beradi.

Ta’lim xizmatlari bozorida OTMlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini tahlil qilish, uning ishtirokchilarini o‘rtasida o‘zaro aloqalarni o‘rnatish, ta’sir o’tkazish vositalarini va o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash hamda oliy o‘quv yurtlari raqobatdoshligining asosiy omillarini aniq belgilashga imkon beradi. Ta’lim muassasalarining tashqi muhit bilan o‘zaro munosabati asosiy faoliyat doirasida jamlanadi. Milliy iqtisodiyot ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda raqobatbardoshlikni shakllantirish, ta’lim xizmatlari xaridorlari va davlat muassasalari talabi asosida, shuningdek, bozor kon'yunkturasini hisobga olgan holda universitetlar o‘zlarining maqsad va vazifalarini shakllantiradi[8]. Bu tashkilotning ichki muhitini tashkil etuvchi funksiyalar orqali amalga oshiriladi. Mavjud boshqaruv yondashuvlarini o‘rganish, turli xil ta’lim muassasalari tajribasini tadqiq etish hamda taklif qilinayotgan tadqiqot obyekti va mavzusini o‘rganish, bizga, oliy ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari to‘g‘risida o‘z qarashlarini shakllantirish imkonini berdi.



**2-rasm. Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalarining funksiyalari<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda yangi bilimlarni yaratish va joriy etish OTMlarning asosiy maqsadi bo‘lib, bu jarayon jamiyatning innovatsion rivojlanishini yuqori malakali kadrlar bilan ta’minlashga yo‘naltiriladi. Shuningdek, milliy va xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish alohida ahamiyatga ega. Ta’lim muassasasining maqsad va vazifalari quyidagi funksiyalar asosida amalga oshiriladi: ta’lim, ilmiy-tadqiqot, marketing, innovatsiya, boshqaruv, xalqaro, investitsiya, tijorat va moliyaviy. Muayyan faoliyat doirasidagi funksiyalarni muayyan usullar va vositalardan foydalangan holda bajarish oliy ta’lim xizmatlari va OTMning raqobatbardoshligini shakllantiradi (2-rasm).

Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalarining funksiyalari tavsifiga nazar tashlasak:

- ta’limga o‘quv dasturlari, lokal me’yoriy hujjatlar kiradi;
- ilmiy-tadqiqot yo‘nalishida ITTKI rejalashtirish va moliyalashtirish, nashr ishlari, doktorantura va mustaqil tadqiqotchilik;
- marketing faoliyati marketing tadqiqotlari, ta’lim xizmatlari marketingi, narx siyosati, kadrlar marketingi, marketing kommunikasiyasi kabilardan iborat;
- innovatsion faoliyat – axborot texnologiyalarini joriy etish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion ta’lim dasturlarini moliyalashtirish, ta’lim va yuqori texnologik ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash va h.k.;
- boshqaruv jarayoni – strategik, taktik va operativ kalendar rejalar, kadrlar siyosati, moliyaviy boshqaruv, faoliyat natijalari tahlili;
- xalqaro – xalqaro akademik mobillik dasturlari, xorij talabalari uchun ta’lim dasturlari, etakchi olimlar va mutaxassislarini jalb qilish dasturlari, xorijiy OTMlar bilan hamkorlik;
- investitsion va tijorat – mablag‘lardan maqsadli foydalanishni nazorat qilish, faoliyatni byudjetlashtirish, resurslarni konsentratsiyalash, ta’limni rivojlantirish bo‘yicha turli xil jamg‘armalarni tashkil etish va h.k.

Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini baholash usullari bo‘yicha ham turli yondashuvlar mavjud.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning raqobatbardoshligini baholash muammosiga keng qamrovli qiziqish uslubiy vositalardan foydalanishda turli xil yondashuvlarning mavjudligini ifaodelaydi[8]. Iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, OTMlarda raqobatbardoshlikning muhim jihatlarini hamda uni baholash usullarini o‘rganishda muayyan yutuqlarga erishilganligini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni ham tovar (ish, xizmat) sifatida, ham tashkilot (muassasa) sifatida raqobatbardoshlikni baholash uchun juda ko‘p uslubiy yondashuvlar ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ko‘rib chiqilgan usullarning muhim jiddiy kamchiliklari bo‘lib, ularning jami tashqi va ichki muhit omillari ta’sirini baholashning tizimli bo‘limgan va alohida yo‘nalishlar bo‘yicha baholanishi hisoblanadi.

Kelgusidagi tadqiqotlar OTMlarning ta’lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini baholashning uslubiy asoslarini takomillashtirishni zarurat etadi. Asosiy yondashuvlarning umumiy tavsifi, shuningdek ularning imkoniyatlari hamda o‘ziga xos xususiyatlari tavsifi bilan ifodalanadi.

Ta’lim xizmatlari bozorida OTMlarning raqobatbardoshligini baholash jarayonini tizimlashtirilishi va usullarning tavsifi 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, sifat va miqdoriy jihatdan baholash usullari sifatida ifodalangan.

Tadqiqot doirasida taqdim etilgan uslubiy yondashuvlar va raqobatbardoshlikni baholash uslublari to‘plami ushbu metodik apparat etarli darajada rivojanmaganligi va ushbu sohaga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda OTMlari raqobatbardoshlik darajasini baholashning umumlashtirilgan uslubini ishlab chiqish zarurati to‘g‘risida xulosa qilishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, ta’lim xizmatlari bozorida OTMlarning raqobatbardoshligini tahlil qilishning o‘ziga xos metodikasini ishlab chiqish zarurati quyidagilarga asoslanadi:

- 1) mavjud uslubiy apparatning etarli darajada ishlab chiqilmaganligi va tarqoqligi;
- 2) keng tarqalgan daromad yondashuvidan foydalanishni imkonsiz qiladigan oliy o‘quv yurtlari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari;

3) milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirishga yo'naltirilgan kadrlar salohiyatini oshirish uchun oliy ta'lim sohasidagi faoliyatning ahamiyati.

Bizningcha, ta'lim xizmatlari bozorida OTMlari raqobatbardoshligini baholash metodikasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladigan qiyosiy yondashuvdan iborat[8]:

1. Ta'lim muassasasining maqsadlari va vazifalarini jamiyat, iqtisodiyot ehtiyojlari hamda ta'lim xizmatlariga bo'lган mijozlarning talablariga muvofiqligini tadqiq etish.

2. Oliy ta'lim muassasalari raqobatdoshligini shakllantiruvchi tashqi va ichki muhit omillarini tahlil qilish.

3. Erishilgan raqobatbardoshlik darajasini baholash.

4. Ta'lim muassasasining raqobatdoshlik profilini shakllantirish.

OTMlarning raqobatbardoshligi jarayon ishtirokchilari: oliy o'quv yurtlari va ta'lim xizmatlari mijozlarining o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi.

OTMlarning maqsad va vazifalari jamiyat, iqtisodiyot va buyurtmachilar ehtiyojlariga muvofiqligi, ularni taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Ushbu holatda, OTM faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, uning ixtisosligi va turi hamda joylashgan hududini hisobga olishni nazarda tutadi. Muayyan hudud yoki oliy o'quv yurtining faoliyat ko'lamiga bog'liq holda ta'lim xizmatlari buyurtmachilarining talablari hamda maqsad va vazifalarining shakllanishi bir-biridan farqlanishi mumkin.

OTMning maqsad va vazifalari hamda ta'lim xizmatlari buyurtmachilarining talablari (ehtiyojlar) shuni nazarda tutadiki, bunda tahlil obyekti bo'lib, davlat universitetlari hisoblanadi. Bunda metodika uni har qanday OTMga nisbatan amalga oshirish imkonini beradi.

2-jadval oliy o'quv yurtlarining aniq vazifalari va ta'lim xizmatlari buyurtmachilarining talablari (ehtiyojlar) o'rtaida muvofiqlikka erishish imkonini beradi, xususan:

- “Iqtisodiyot ehtiyojlariga muvofiq mutaxassislarini tayyorlash” va “Mutaxassislarni tayyorlash darajasining davlat ta'lim standartlari va malaka talablariga muvofiqligi” to'rtinchi va beshinchi vazifalarga erishish jarayonida amalga oshiriladi;

## 2-jadval

### OTMlarning maqsad va vazifalarini ta'lim xizmatlari buyurtmachilari ehtiyojlar bilan taqqoslash<sup>1</sup>

|             |  |  |   |  |   |   |
|-------------|--|--|---|--|---|---|
| OTM maqsadi |  | Ilmiy va ta'lim salohiyatini rivojlantirish asosida milliy va xalqaro raqobatbardoshlikning shakllanishi |   |  |   |   |
| Vazifalar   |  | 1  | 2 | 3  | 4   | 5 |
| Davlat      | Milliy oliy ta'lim tizimi raqobatbardoshligi |  |   |  |   |   |
|             | x  | x  | x | Iqtisodiyot talablariga muvofiq mutaxassislar tayyorlash                     |   |   |
|             | x  | x  | x | Davlat ta'lim standartlariga mos kadrlar tayyorlash darajasining muvofiqligi |   |   |
| 6           | Uy xo'jaliklari, talabalar                   | Ta'lim dasturlarining innovatsion tavsifi  |   | DTS talab-lariga mos sifatli tayyorlash                                      | Tanlangan kasblar doirasida kasbiy realizatsiya qilish imkoniyati     |   |
|             |  | Yuqori reytingga ega ta'lim muassasasidan diplom olish   |   |  | Kadrlar tayyorlashning talab etilgan yo'nalishi bo'yicha ta'lim olish | X |
|             | Biznes tuzilmalari                           | Ta'lim dasturlarining innovatsion tavsifi  |   |  | Olingan malaka doirasida kasbiy realizatsiya                          | X |

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

|                     |   |  |   |  |   |
|---------------------|---|--|---|--|---|
|                     |   |  |   | Kadrlar kasbiy tayyorgarligiga xo‘jalik subyektlari talablarini qondirilishi | X |
|                     |   | Oliy ta’limning innovatsion rivojlanishi |   |  |   |
| Jamoat institutlari | x | x  | x | Jamiyat ehtiyojlariga oliy ta’lim tizimining muvofiqligi                     | x |

– “Ta’lim dasturlarining innovatsion xususiyati”ga birinchi va ikkinchi maqsadlarni amalga oshirish jarayonida erishiladi;

– “Davlat ta’lim standartlari talablariga muvofiq yuqori sifatli o‘qitish” uchinchi vazifa doirasida amalga oshiriladi;

– yuqori darajadagi ta’lim muassasasidan diplom olish zarurligini qondirish birinchi masalani hal qilishda erishiladi;

– to‘rtinchı vazifa doirasida quyidagilar ham amalga oshiriladi:

– “Tanlangan kasb doirasida”, “Ijtimoiy yuksalish” bo‘yicha “kasbni amalga oshirish imkoniyati”, “Talab qilinadigan o‘qitish yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim olish”, “Olingan malaka doirasida kasbiy faoliyat”, “Tadbirkorlik subyektlarining yuqori ma’lumotli malakali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojini qondirish”, “Kadrlarni kasbiy qayta tayyorlashda tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlarini qondirish”, “Oliy ta’lim tizimining jamiyat ehtiyojlariga muvofiqligi”.

Ta’lim xizmatlari buyurtmachilarining barcha talablari (ehtiyojlar) OTMining vazifalaridan biri sifatida amalga oshiriladi, bu ham jamiyat, iqtisodiyot va ta’lim xizmatlari buyurtmachisining ehtiyojlariga muvofiq kelishi to‘g‘risida xulosaga kelish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini barqaror rivojlantirish va raqobatbardoshligini oshirish bo‘yicha tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Respublikamizda faoliyatni amalga oshirayotgan OTMlari soni 2017-2023-yillarda 191 taga ko‘payib, bu ko‘rsatkich mazkur yillar oralig‘ida 2,7 martaga oshgan. Tahlil qilinayotgan yillarda OTMlarda o‘qiyotgan talabalar soni OTMlar soniga muvofiq ravishda 2017-2018 o‘quv yilida 287,5 mingtadan 2022-2023 o‘quv yilida 1042,1 mingtaga ko‘paygan (1-jadval). O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lam tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoniga muvofiq konsepsiya uzoq muddatli maqsadlar va vazifalarni o‘z ichiga olib, oliy ta’limning istiqbolda rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi. Shunga ko‘ra, respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minalash uchun bir vaqtning o‘zida raqobatdosh ustunliklarni hisobga olgan holda mehnat salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi darajasini yuksaltirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish alohida dolzarb masalalar hisoblanadi. Mazkur muammolarni hal qilishda asosiy rolni Yangi O‘zbekistonning strategik vazifalari ko‘lami va darajasiga muvofiq keladigan kompleks kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash va mehnat bozoriga etkazib berishni amalga oshiruvchi OTM zimmasiga yuklanadi.

O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lam tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi Farmoniga muvofiq konsepsiya uzoq muddatli maqsadlar va vazifalarni o‘z ichiga olib, oliy ta’limning istiqbolda rivojlantirish strategiyasini amalga oshirishni nazarda tutadi.

Shunga ko‘ra, respublikamiz iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta’minalash uchun bir vaqtning o‘zida raqobatdosh ustunliklarni hisobga olgan holda mehnat salohiyatini oshirish, ishlab chiqarishning intellektuallashuvi darajasini yuksaltirish va inson kapitalini rivojlantirish bilan bog‘liq muammolarni hal qilish alohida dolzarb masalalar hisoblanadi. Mazkur muammolarni hal qilishda asosiy rolni Yangi O‘zbekistonning strategik vazifalari ko‘lami va darajasiga muvofiq keladigan kompleks kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash va mehnat bozoriga etkazib berishni amalga oshiruvchi OTM zimmasiga yuklanadi.

**2-jadval****O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan oliy ta’lim muassasalari soni (o‘quv yili boshiga, birlik)<sup>1</sup>;**

| Ko‘rsatkichlar  | Yillar    |           |           |           |           |           | 2017-2023-yillarda o‘sish, % |
|---|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|------------------------------|
|   | 2017/2018 | 2018/2019 | 2019/2020 | 2020/2021 | 2021/2022 | 2022/2023 |                              |
| Oliy ta’lim muassasalari soni, birlik   | 72        | 98        | 119       | 127       | 154       | 191       | 2,7 marta                    |
| Shu jumladan, xorijiy oliy talim tashkilotlari filiallari                       | 7         | 9         | 18        | 20        | 25        | 26        | 3,7 marta                    |
| Ularda talabalar, ming kishi  | 297,7     | 360,2     | 441,0     | 571,5     | 808,0     | 1042,1    | 3,5 marta                    |
| Shu jumladan, bo‘limlarda tahsil olaydiganlar, ming kishi:<br>kunduzgi bo‘limda | 287,5     | 313,0     | 360,1     | 441,9     | 553,4     | 622,6     | 2,2 marta                    |
| Kechki  | -         | 1,2       | 7,3       | 11,5      | 26,6      | 37,7      | -                            |
| sirtqi bo‘limda   | 10,2      | 46,0      | 73,6      | 118,1     | 228,0     | 381,8     | 37,4 marta                   |
| 10000 aholiga to‘g‘ri kelaligan talabalar soni, birlikda                        | 93        | 110       | 130       | 165       | 229       | 289       | 3,1 marta                    |
| Qabul qilingan talabalar soni, ming kishi                                       | 85,7      | 114,5     | 138,1     | 174,9     | 235,9     | 282,4     | 3,3 marta                    |
| Shu jumladan bo‘limlarga:<br>kunduzgi bo‘limga                                  | 76,7      | 86,2      | 111,6     | 132,7     | 166,7     | 196,4     | 2,6 marta                    |
| Kechki  | -         | -         | 3,2       | 6,0       | 9,0       | 10,5      | -                            |
| sirtqi bo‘limga   | 9,0       | 28,3      | 23,3      | 36,2      | 60,1      | 75,5      | 8,4 marta                    |
| Bakalavriatga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi                         | 80,8      | 108,7     | 128,7     | 165,0     | 220,2     | 275,5     | 3,4 marta                    |
| Shu jumladan: kunduzgi  | 71,8      | 80,4      | 102,5     | 123,0     | 151,6     | 187,8     | 2,6 марта                    |
| Kechki  | 0,0       | 0,0       | 3,1       | 5,8       | 8,7       | 9,4       | -                            |
| Sirtqi  | 9,0       | 28,3      | 23,1      | 36,2      | 59,9      | 78,3      | 8,7 марта                    |
| Bitirgan mutaxassislar soni, ming kishi   | 67,4      | 70,3      | 70,8      | 83,9      | 103,9     | 102,4     | 1,5 марта                    |
| 10000 aholiga nisbatan bitirgan mutaxassislar                                   | 21,0      | 21,5      | 21,0      | 24,0      | 29,6      | 29,5      | 1,4 марта                    |

**Xulosa va takliflar.** Ta’lim xizmatlari bozorida oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligini shakllantirish o‘ziga xos omillar majmuasi bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra:

OTMLari raqobatbardoshligiga ta’sir etuvchi omillar ta’sir etish davri, ta’sir etish ko‘lami, qamrab olish miqyosi, qo‘llash sohasi, moliyalashtirish tavsifi hamda ta’sir etish xususiyatiga ko‘ra alohida yo‘nalishlar bo‘yicha guruhash asosida tasnifi ishlab chiqildi;

ta’lim xizmatlari bozorida integratsiya jarayonlarini rivojlantirish asosida ilmiy tadqiqot maktablarining innovatsion yutuqlarini birlashtirish jarayonlarini jadallashtirish;

ta’lim sifatiga qo‘yiladigan malaka talabalarini standartlashtirish;

ta’lim va ishlab chiqarish integratsiyasini amaliyotga tatbiq qilish;

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlar asosida tuzilgan.

ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim tashkilotlarining raqobatbardoshligi omillari hamda tamoyillari aniqlanib, oliy ta'lim muassasalari ko'rsatkichlar taxlili asosida ilmiy takliflar ishlab chiqish;

oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini baholash metodikasi xususiy ko'rsatkichlarning ahamiyatlilik darajasi bo'yicha reytingini har bir ko'rsatkichning ta'lim xizmatlari bozoridagi raqobatbardoshligini vazn koeffitsientlari orqali aniqlash asosida takomillashtirildi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // —Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 25 yanvar. 19-son. 1-4 betlar.
2. Inson taraqqiyoti. Darslik. I.f.d., professor Q.X.Abduraxmanov tahriri ostida. – Т.: —Fanva texnologiyal nashriyoti, 2013. – 476 bet.
3. Pardaev M.Q. va boshqalar. Ta'lim xizmatlari va ularning samaradorligini oshirishmasalalari. Monografiya. – Т.: —Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyil, 2020. – 200 b.
4. Isroilov B.I. Ta'lim tizimida korrupsiyani oldini olish masalalari. // Innovatsion varaqamli iqtisodièt sharoitida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish muammolari. (21-22 fevral 2020 yil) Xalqaro IAK materiallari, Samarqand-Tambov, 2020. – 183-186-betlar.
5. Rajabov B.J., Toshnazarov S.N., Islomov B.S. va boshqalar. Ta'lim sifatini yaxshilashdaerishilgan natijalardan samarali foydalanish. Monografiya. – Т.: —TURON-IQBOII?
6. Berdiqulov Q. Zamonaviy jamiyatda xizmatlar sohasining o'rni qanday?
7. Белый Э.М. Конкурентные преимущества вузов: классификация с по-зитсий стейкхолдерменеджмента [Текст] / Э.М. Белый, И.Б. Романова // Современные проблемы науки и образования. – 2012. – № 5. – С.268 – 274;
8. Бондаренко Э.Н. Методические подходы к отсенке конкурентоспособности региона [Электронный ресурс] / Э.Н.Бондаренко // Наукапарк. – 2011. – № 2(3). – С. 88-95;
9. Дергачева Э.А. Повышение конкурентоспособности и качества образовательных услуг в вузе [Текст] / Э.А. Дергачева Н.Н. Чернетсова // Вестник Брянского государственного технического университета. – 2008. – № 3. – С.108-117;
10. Экшикеев Т.К. Развитие конкурентного потенциала вуза на рынке образовательных услуг [Текст] / Т.К. Экшикеев // Проблемы современной экономики. – 2009. – № 2. – С. 375-378;
11. Захарова Э.Н. Особенности формирования конкурентоспособности вуза как субъекта рынка образовательных услуг [Текст] / Э.Н. Захарова, О.Г. Гисина // Проблемы экономики и юридической практики. – 2013. – № 2. – С.185-188;
12. Зотов Н.В. Совершенствование системы управления конкурентоспособностью предприятий стекловолоконной фурнитуры: автореф. дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05 [Текст] / Н.А. Зотов. – СПб, 2007. – 18 с.;
13. Лазарев В.А. Конкурентоспособность вуза как объект управления: монография [Текст] / В.А.Лазарев, С.И. Мохначев. – Экатеринбург: Пригородные вести, 2003. – 160 с.;
14. Фатхутдинов Р. А. Управление конкурентоспособностью вуза [Текст] /Р.А. Фатхутдинов //Высшее образование в России. – 2006. – № 6. – С. 35-37.
15. <https://stat.uz/uz/press-sluzhba/novosti-gks/3598-zamonavij-zhamiyatda-khizmatlar-so-asining-rni-andaj>
- 16.<https://www.dissercat.com/content/formirovanie-mekhanizma-povysheniya-konkurentosposobnosti-organizatsii-vysshego-obrazovaniya>

*Muassislar:*  
*Buxoro davlat universiteti*  
*“Economic science” mas’uliyati cheklangan jamiyati*

"IQTISODIYOT VA  
TURIZM"  
xalqaro ilmiy va innovatsion  
jurnali

2024-yil 1-son (15)

2021-yildan  
chiqa boshlagan.

OBUNA INDEKSI: 200117

Manzil: Buxoro shahri,  
M.Iqbol ko’chasi, 11-uy, 2-bino,  
403-xona.

**ilmiy va innovatsion nashri**

Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.

Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.

Nashr uchun mas’ul:

Gavhar XIDIROVA

Muharrir:

Navruz-Zoda Baxtiyor Negmatovich

Jurnal tahririya kompyuterida  
sahifalandi. Chop etish sifati uchun  
bosmaxona javobgar.

Bosishga ruxsat etildi 10.02.2024

Bosmaxonaga topshirish vaqtி

26.02.2024

Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8

Tezkor bosma usulda bosildi.

Shartli bosma tabog‘i – 14,5

Adadi – 100 nusxa

Buyurtma №65.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ  
bosmaxonasida chop etildi.

Bosmaxona manzili: Buxoro shahri  
M.Iqbol ko’chasi 11-uy.